

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**INTERFAOL METODLAR:
MOHIYATI VA QO‘LLANILISHI
(Metodik qo‘llanma)**

UDK:

BBK:

I -

Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmombayeva, Z.Xoliqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 108 bet.

“Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi” nomli metodik qo'llanmada zamonaviy ta'limda samaradorligi e'tirof etilgan 80 dan ortiq interfaol metodlar, ularning didaktik imkoniyatlari, qo'llanish shartlari va tartibi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, metodik qo'llanmada turli o'quv fanlari bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotlarda interfaol metodlarni qo'llashga oid tajribalardan namunalar berilgan.

Metodik qo'llanma respublika uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent v/b. I.Uzoqov
Pedagogika fanlari nomzodi P.Xodjaye

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy-metodik kengashining “_____” 2013 yildagi yig'ilishi qarori (“_____”-sonli bayonnoma) bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO'Z BOSHI

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bu kabi metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o'rinli, maqsadli, samarali qo'llanilishi ta'lim oluvchi (o'quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g'oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Metodik qo'llanmada 80 dan ortik interfaol metodlar, ularning mohiyati va qo'llanilishi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan bir qator o'quv fanlari bo'yicha muayyan mavzularni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanishga doir misollar keltirilgan. Manbada ushbu metodlarning alfavit tartibida berilganligi foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi.

Mualliflar jamoasi respublika uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi (pedagog)larning o'z ish tajribalarida interfaol metodlarni qo'llashga doir shaxsiy tajribalarini o'rtoqlashishlariga umid qiladi. Bu boradagi taklif hamda ish tajribasiga doir mulohazalarni quyidagi elektron pochtaga maktub yozish orqali bildirishlari mumkin: pedagogika2012@mail.ru. Mualliflar jamoasi metodik qo'llanma yuzasidan taklif-mulohazalarni bildirgan, o'z ish tajribasi bilan o'rtoqlashgan shaxslarga avvaldan minnatdorchilik izhor qiladi.

I BO' LIM. INTERFAOL TA'LIMNING UMUMIY TAVSIFI INTERFAOL TA'LIM VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samarlarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha – “interfaol” atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:

O'qituvchi – o'quvchi

An'anaviy ta'limdagi suhbat
ishtirokchilari

O'qituvchi – o'quvchilar
guruhi (jamoasi)

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, “yetkazib beruvchi” rolida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi (talaba) namoyon bo'ladi. O'quvchi (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat

qiladi. O'quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.


Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"¹.

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol o'qitishda esa shaxslar o'rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:


Interfaol ta'lim mohiyatiga ko'ra suhbatning "o'quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:

¹ Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 122-bet.



Shu bilan birga ta'limda interfaol ta'limning samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq:



O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqarilish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Odatda interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:
individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash


Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchi (talaba)lar:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalari erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

Interfaol ta'lim:

- ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir o'quvchi (talaba)ning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- o'quvchi (talaba)larga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- o'quvchi (talaba)larda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o'quvchi (talaba)larning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi

Interfaol ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir:




Izoh: Refleksiya (lotincha “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash².

² Pedagogik mahorat: sxema va rasmlarda / Metodik qo'llanma. N.Erkaboeva, M.Usmonboeva, M.Irgashova, N.Xo'janazarova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDP, 2012. – 14-bet.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:


1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. O'quvchilar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir o'quvchi o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda o'quvchi shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar o'quvchilarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun o'qituvchi (pedagog)lar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:



Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada o'quvchilar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:



Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. "Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi"³. Qo'llanmaning keyingi bo'limida interfaol metodlar, ularning mohiyati, qo'llanish shartlari va didaktik imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritiladi.


³ Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 140-141-betlar.

II BO' LIM. TA'LIM STRATEGIYALARI VA ULARNING QO'LLANILISHI

“AJURLI ARRA” STRATEGIYASI


“Ajurli arra” (frantsuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq) metodi o'quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi (talaba)lar tayyor matnlar bilan ishlaydi.

Mashg'ulotda metodni qo'llash quyidagi taxlitda amalga oshiriladi:



Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)larning mavzuni puxta o'zlashtirganliklari, o'zlari ega bo'lgan bilimlarni boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo'lishlari muhim sanaladi.

“Ajurli arra” metodining texnologik modeli quyidagicha:



«AKVARIUM» STRATEGIYASI

Ta'lim jarayonida ushbu texnologiyani qo'llashdan maqsad o'quvchi (talaba)ni ma'lum muammo bo'yicha fikrlash, o'z fikrini bayon etish, muammoni sherik (suhbatdosh) bilan birgalikda muhokama qilishga o'rgatishdan iborat.

Metodni qo'llashda quyidagi tashkiliy harakatlar tashkil etiladi:

O'quv xonasida stullardan iborat ikkita doira tashkil etiladi;
1-doirada stullar tashqariga, 2-doirada esa ichkariga qarab joylashtiriladi

O'quvchilar ikki guruhga bo'linib, 1-guruh stullar tashqariga qaratib qo'yilgan doiradan, 2-guruh esa stullar ichkariga qaratib qo'yilgan doiradan joy oladi

1-guruh (tashqi doira)dagilar "Tahlilchilar", 2-guruh (ichki stullar)dagilar "Kuzatuvchilar" rolini bajarishadi

Metodni qo'llash tartibi quyidagicha:

Tashqi doiradagi o'quvchilarga muhokama qilish uchun savol beriladi

O'quvchilar o'ylab olganlaridan so'ng savolni chap tomonida o'tirgan sherigi bilan 1-2 daqiqa muhokama qiladi

O'qituvchining ishorasi bilan "Tahlilchilar" (tashqi doiradagilar) bir o'rin chapga surilib, o'sha savolni yangi sherigi bilan muhokama qilishadi

"Tahlilchilar" o'rin almashtirishda 1-sheriklariga yaqinlashgunlaricha yoki yangi sheriklar bo'lgunga qadar savolni muhokama qilishni davom ettiradi


Izoh: "Tahlilchilar"ning asosiy vazifasi savol yuzasidan muhokamani tashkil etish, "Kuzatuvchilar"ning asosiy vazifasi esa 1-guruh ("Tahlilchilar") faoliyatini kuzatib baholashdan iborat.

"AJIL" ("AMALIY JAMOAVIY IJODIY LOYIHALAR") STRATEGIYASI


Texnologiya o'quvchi (talaba)larda ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyani o'quv jarayonida "Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish" mavzusidagi suhbat yoki "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" nomli blits-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Metodni qo'llashda quyidagi taxlitda ish ko'riladi:




Shundan so'ng o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlarda ishlaydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:



“ASALARI GALASI” STRATEGIYASI

“Asalari galasi” metodi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo‘llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma‘lum qilinadi. Mashg‘ulot yakunida masalaning eng maqbul yechimi tanlab olinadi.

Mashg‘ulot jarayonida metodni qo‘llashda quyidagicha yo‘l tutiladi:



“AQLIY HUJUM” STRATEGIYASI

Metod o‘quvchi (talaba)larni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalariidan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Metod mavzu doirasida ma‘lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Uni samarali qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

O'quvchi (talaba)larning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish, g'oyalarni yozish borish uchun yozuv taxtasi yoki qog'ozlarni tayyorlab qo'yish

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash

Mashg'ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash

Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish, qog'ozlar g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng yozuv taxtasiga osib qo'yish

Bildirilgan fikr, yangi g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga e'tibor qaratish

O'quvchi (talaba)ning boshqalar bildirgan fikrlarni yodda saqlashi, ularga tayanib yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish (bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi)

O'quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil fikr yuritilishi, shaxsiy fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish

Ilgari surilgan g'oyalarni yanada boyitish asosida o'quvchi (talaba)larni quvvatlash

Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik

Yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik

Mashg'ulotda metodni qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

O'quvchi (talaba)larni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish

Har bir o'quvchi (talaba) tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi

Har bir o'quvchi (talaba) o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin; avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi tug'ilishiga olib keladi

Mashg'ulotda o'quvchi (talaba)lar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, o'quvchi (talaba)lar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi (talaba)larni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir)


"BALIQ SKELETI" GRAFIK ORGANAYZERI

Metod o'quvchi (talaba)larda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Metoddan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni metodni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
- 4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
- 5) jamoa guruhlarining yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi

O'quvchi (talaba)lar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig'i va qat'iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og'zaki bahs bo'lib, o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga doir ma'lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'riladi:

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o'quvchi (talaba)larga oldindan ma'lum qilinadi

Jarayon o'qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi

O'quvchi (talaba)lar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo'yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo'yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi

Yechim bo'yicha asosiy fikrni bayon etadigan o'quvchi (talaba)larga 10 daqiqa, qo'shimcha qilish istagida bo'lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi

O'qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi

Izoh: 1) bir o'quvchi (talaba)ga ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi;

2) o'qituvchi (boshlovchi) o'quvchi (talaba)larning mavzudan chetga chiqmasliklarini qat'iy nazorat qilib boradi, bordi-yu, shunday holatlar sodir etilsa, so'zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA” STRATEGIYASI

O'quvchi (talaba)larning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:


- 1) o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;
- 2) hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- 3) o'quvchi (talaba)larga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- 4) o'quvchi (talaba)larni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslash talab qilinadi)

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchi (talaba)larda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash tengdoshlarning fikrlari va shaxsiy g'oyalarni o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

**“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN.
BILIB OLDIM” (BBB) GRAFIK ORGANAYZERI**

Metod o'quvchi (talaba)larga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.


Guruhlar faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:



Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning tafsiloti qo'yidagicha:

**Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi**

- 1) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlariga birlashtiriladi;
- 2) o'quvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha tushunchalariga egalik darajasi o'rganiladi;
- 3) o'quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyiha 1-bandiga yozib boriladi;
- 4) o'quvchi (talaba)larning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi;
- 5) o'quvchi (talaba)larning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyiha 2-bandiga yozib qo'yiladi;
- 6) o'quvchi yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlardan o'quvchilarni xabardor qiladi;
- 7) o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- 8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyiha 3-bandiga yozib qo'yiladi;
- 9) mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi

“BLITS-SO'ROV” METODI

“Blits-so'rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o'quvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:

O'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi



O'quvchi (talaba)lar berilgan savolga qisqa muddatda lo'nda, aniq javob beradi




Guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to'ldiradi, (biroq, fikrlar akrorlanmasligi lozim)

Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati o'quvchi (talaba)lar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“BUMERANG” STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o'qituvchiga tarqatma materiallarning o'quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o'zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta'minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik,


guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin. Boshqa interfaol metodlar kabi ta'lim jarayonida mazkur texnologiyani qo'llash ham muayyan tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni:



“VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI


Strategiya o'quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki eanilarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



Strategiyani qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar Mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“VIDEOTOPISHMOQ” STRATEGIYASI

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (komp'yuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, Video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida o'qitishda turli axborot vositalaridan o'rinni, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi.

Metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'quvchi (talaba)larga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriyl yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namovish qilinadi



O'quvchi (talaba)lar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi



O'quvchi (talaba) video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqealarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi



O'quvchi (talaba)lar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi

Videolavhalar namoyish qilingach, o'quvchi (talaba)lardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqealilik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o'quvchi (talaba)lar o'rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'ladi.

"GALEREYA" STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)larda kichik guruh asosida bir yo'la bir nechta masalani muhokama qilish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda guruhning har bir a'zosi taklif etilgan barcha masalalar yechimini topishga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mashg'ulotlar davrida "Galereya" metodidan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich – masalani qo'yish (o'qituvchi kichik guruhlariga muayyan muammo (yoki masala)ni hal qilish to'nsiriq'ini beradi

2-bosqich – har bir guruh o'ziga topshirilgan masalaning yechimini topish ustida ishlaydi (bu jarayon 5-10 daqiqa ichida kechadi)

3-bosqich – har bir guruh navbati bilan 2-, 3- va 4-guruhga topshirilgan muammoning yechimini topishga kirishadi (guruhlar harakan doira tarzida soat strelkasi bo'yicha amalga oshiriladi; bir guruh boshqa guruhlarining yechimlarini o'rganadi, ularga nisbatan o'z munosabatini bildiradi; qo'shimchalar kiritadi)


4-bosqich – guruh o'z o'rniga qaytadi

5-bosqich – har bir guruhdan bir nafar o'quvchi (talaba) guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi va ular asosida muhokama tashkil etiladi

6-bosqich – muayyan guruh boshqa guruhlarining yechimlariga nisbatan o'zlari tomonidan bildirilgan mulohazalarni sharhlaydi

7-bosqich – guruhlarining fikrlariga ko'ra vakuniv xulosaga kelinadi

Metodni qo'llash jarayonini sxema asosida quyidagicha ifodalash mumkin:




Izoh: doira ichidagi 1-t, 2-t, 3- va 4-t ifodalari quyidagi mazmunni bildiradi: 1-t – 1-topshiriq; 2-t – 2-topshiriq; 3-t – 3-topshiriq; 4-t – 4-topshiriq.

“GUGURT DONALARI” STRATEGIYASI

Gugurt donalari metodi o'quv materiallarining o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'rganilgan qay darajada egallanganligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Metod o'quvchi (talaba)larga o'quv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, ularni izohlash, tahlil qilish, ta'riflashga yordam beradi. Shuningdek, metod mashg'ulot davomida har bir o'quvchi (talaba)ga turli topshiriqlarni individual bajarish, uning ustida mustaqil ishlash imkonini beradi. Bu metod o'quvchilarda bir qator tarbiyaviy xarakterdagi, ya'ni: mustaqil ishlay olish; muloqatga kirishuvchanlik; xushf'ellik; o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatning samarali bo'lishiga qiziqish va intilish; o'zini o'zi baholash kabi sifatlarni shakllantirishga yordam berdi.

Metod qo'llanilgan mashg'ulot o'quvchilarni o'rganilgan yoki o'rganilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga olish, to'plangan fikrlashni umumlashtirish, ularni yozma ravishda yoki rasm, chizma, tasvir, sxema, model ko'rinishida ifodalashga o'rgatadi. Metod juftlik, kichik guruhlar yoki jamoada tashkil etiladi. O'quvchi (talaba)lar tushunchalarni yozma ravishda ta'riflaydi va ularni taqdimot asosida jamoaga namoyish qiladi.

Mashg'ulotda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




Izoh: o'quvchi (talaba)lar tomonidan tanlangan har bir gugurt donasi yoki oddiy cho'p bittadan tushunchani ta'riflash shartligini anglatadi. Shunga ko'ra o'quvchi (talaba) agarda ikkita gururt donasini tanlagan bo'lsa, u holda ikkita tushunchani ajratib ko'rsatib, ularni ta'riflaydi. Gururt donalari sonining ortib borishiga ko'ra tushunchalar soni va ularga beriladigan ta'riflar miqdori ham ko'payib boradi.

“YAGONA DAVRA” STRATEGIYASI

O'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglash, ularni to'ldirish, shaxsiy fikrlarni asoslash, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan har bir o'quvchi (talaba)ning fikrini bilish muhim. SHuning uchun har bir o'quvchi (talaba) fikr bildirayotganda uning so'zini bo'lish, qo'shimcha qilish hech kimga, hatto o'qituvchiga ham ruxsat etilmaydi.

Metodni qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etish shart:




O'qituvchi muhokamaning yakunida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishi, har bir o'quvchi (talaba)ning ishtirokini ko'rsatib o'tishi mumkin. Metod, odatda, mashg'ulotning boshlanishi yoki yakunida qo'llaniladi.

“DEBAT” METODI

“Debat” (frantsuzcha “Debatterye” so'zidan olingan bo'lib, “Debats” – “bahslashmoq”) texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu

yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.


O'quv mashe'ulotlarida Debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:



“DELFI” STRATEGIYASI

Metod taklif qilinayotgan muqobil javoblar ichidan eng yaxshisini tanlashga yordam beradi. Buning uchun jamoaning a'zolaridan muayyan mavzu mohiyatini ochib beruvchi eng maqbul javoblarni bildirish taklif qilinadi. Bildirilgan javob variantlari to'planadi. So'ngra jamoaning har bir a'zosidan ma'lum ketma-ketlikda mavjud javoblarning har biriga baho berish talab qilinadi.

Ta'limda metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



“YELPIG‘ICH” STRATEGIYASI


Murakkab va ko'p tarmoqli bo'lib, muammoli vaziyatlarni o'rganishga yo'naltirilgan ushbu texnologiyanning mohiyatiga ko'ra mavzuning bandlei, bo'limlari bo'yicha ma'lumot beriladi. Band va bo'limlar alohida-alohida muhokama qilinadi. Masalan, ma'lum hodisa, voqea yoki jarayonning ijobiy, salbiy jihatlari, foydasi, zarari, afzalligi, kamchiligi ko'rsatib beriladi.

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, shaxsiy g'oyalarni yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, uni samarali himoya qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

“Yelpig'ich” texnologiyasi yordamida o'zlashtirilayotgan mavzuning muayyan jihatlarini jamoa, guruh, juftlik hamda har bir qatnashchining individual faol ishlashi asosida o'rganishga xizmat qiladi.

Texnologiyani nafaqat ta'lim, shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchi (talaba)larning quyidagi sifat va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishiladi: jamoa bilan ishlash; muammo va vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish; kelishuvchan qarorlarni qabul qilish; o'zgalar fikrini hurmat qilish; xushmuomalalik; faoliyatga ijodiy yondashish; faollik; muammoga diqqatni jamlay olish va b.

Ta'lim jarayonida muayyan mavzuni o'rganish chog'ida texnologiyani turli bosqichlarda aniq maqsadlar asosida qo'llash mumkin. Masalan:




“ZAKOVATLI ZUKKO” STRATEGIYASI

Bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchi (talaba)larning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod o'quvchi (talaba)larda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llash o'z xohishiga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchi (talaba)lar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda o'quvchi (talaba)lar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. YAkuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o'quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi aniqlanadi.


Mashg'ulotlarda metodni qo'llash orqali o'quvchi (talaba)larning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:



“ZIG-ZAG” STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)lar bilan kichik guruhlarda ishlash, ular tomonidan mavzuning tez va puxta o'zlashtirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, uni qo'llashda: 1) o'quvchi (talaba)larda jamoa (guruh) bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi; 2) mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejraladi.


Metodni qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:




Yuqorida ko'rsatilgan tartibda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtiriladi.

“ZINAMA-ZINA” STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o'quvchi (talaba)larda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:




Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar quyidagi shartlarga amal qiladi:



“IJODIY ISH” METODI

Metod o'quvchi (talaba)larni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larning erkinligi ta'minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. O'quvchi (talaba)lar mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradi.



“INSERT” JADVALI

Metod yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (talaba)larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularni matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar qo'yidagi sxemalar bilan ishlaydi:

1. Matn guruhlarining fikrlari bilan qiyosiy taqqoslanganda:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug' ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarining natijalarini o'rganish chog'ida:

Maxsus belgilarning tartib raqamlari	Guruhlarining nomlari			
	Kopernik	Galilyey	Forobiy	Ibn Sino
1.				
2.				
3.				

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi

Har bir guruhdan o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid ikkita fikr bildirish so'raladi

Guruhlar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadi

Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi

So'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlariga tarqatadi

Guruhlar matn bilan tanishib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydi (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida ifodalanadi)

Guruh a'zolari o'z shaxsiy qarashlarini ifoda etadi va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi

Guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi

Liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradi

Guruhlarining yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi


“INTERVYU” STRATEGIYASI

Metod bir-birlari bilan tanish bo‘lmagan o‘quvchi (talaba)lar o‘rtasida o‘zaro muloqotni tashkil etish, ularning bir-birlari bilan yaqindan tanishishlari uchun zarur sharoitni yaratib berish maqsadida qo‘llaniladi.

Uni qo‘llashda bir-birlarini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, o‘quvchi (talaba)larning tanishib olishlari uchun 2-3 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra juftlikning har bir a‘zosi jamoaga biror qiziqarli dalil yordamida o‘z sherigi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi. Bunda guruhdagi har bir o‘quvchi (talaba)ning bir nafar kishi bilan tanishishi nazarda tutiladi. Metod o‘quvchi (talaba)da dadillik, jur‘atni hosil qiladi. Biroq, bu metodni 25 nafardan ortiq a‘zosi bo‘lgan guruhlarda qo‘llash samarali hisoblanmaydi.

“Intervyu” metodidan bolalar oromgohlari, volontyorlik guruhlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari hamda ta‘lim oluvchilardan iborat yangi ijtimoiy guruhlar tashkil etilganda foydalanish samarali sanaladi.

“Intervyu” metodi quyidagi sxema asosida qo‘llaniladi:



Ta‘lim jarayonida ushbu metod juftlik asosida mavzu bo‘yicha o‘quvchi (talaba)lar tomonidan o‘rganilgan bilimlarning namoyish etilishini ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladi. Bunda juftlikdagi o‘quvchi (talaba)larning biri “Muxbir”, ikkinchisi esa “Taniqli shaxs” bo‘lishi lozim. intervyu jarayonining har ikki qatnashchisi ham mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. “Muxbir” o‘rganilgan mavzu yuzasidan savollar to‘plamini ishlab chiqadi, “Taniqli shaxs” esa savollarga javob bera olishi lozim. Savollar va ular yuzasidan berilgan javoblarni yozma shaklda qisqacha bayon etish maqsadga muvofiqdir. Zero, belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir “Muxbir” jamoa a‘zolarini o‘zi tuzgan savollar, ular yuzasidan “Taniqli shaxs” bergan javoblar bilan tanishtiradi. Barcha “Muxbir”larning chiqishlari tinglangach, jamoa a‘zolari o‘qituvchi rahbarligida eng maqbul savollar to‘plamini, savollarga berilgan eng to‘g‘ri, batafsil javoblar variantlarini aniqlab, g‘oliblarni belgilaydi. Jamoaning fikrini inobatga olgan holda o‘qituvchi g‘oliblarni e‘lon qiladi.

“Intervyu” metodini oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida seminar mashg‘ulotlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida esa to‘garak, ilmiy jamiyatlar faoliyati, “Ma‘naviyat soati” (yoki “Sinf (guruh) soati”)da faol va samarali qo‘llash mumkin.

IMAK ("ISHONTIRISH MAKTABI") STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchilarda boshqalarni ishontirish (buning uchun dalillarni topish, ularni asoslash), suhbatdoshni boshqarish, jamoa orasida, turli hayotiy vaziyatlarda o'zini tutish malakasi va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladi.

Izoh: 1. "Tashkilotchi" lavhada ifodalangan voqeyelikdan kelib chiqqan holda o'zining tashkilotchilik qobiliyati, ishontira olish malakasi, vaziyatni nazorat qilish, turli vaziyat, sharoitlarda o'zini tutish, boshqarish ko'nikmalarini namoyon etishi, tarbiyaviy metodlarni qo'llab, nizoli vaziyatni bartaraf etishga harakat qilishi lozim.

2. Muhokama chog'ida o'qituvchi jamoa bilan birgalikda "Tashkilotchi"ning o'zini tutishi, boshqalarni o'z fikriga ishontira olishi, madaniyati, harakatlaridagi ijobiy va salbiy jihatlarni muhokama qiladi (bunda nizoli vaziyatni bartaraf etish uchun "Tashkilotchi" qanday metodlardan foydalanganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir).

3. Texnologiyani qo'llashda o'quvchi (talaba)lar tomonidan tayyorlangan pedagogik nizoli vaziyatlardan biri to'g'risidagi Videolavhani namoyish etish mumkin.

4. Videolavha mashg'ulotning 2-yarmida ekranda yoki komp'yuter orqali namoyish etiladi. U tomosha qilinib, mazmuni jamoa tomonidan muhokama etiladi. Bu kabi tahlil har bir o'quvchi (talaba)ga o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglash, zarur xulosalarni chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lish uchun yordam beradi.

Texnologiyani qo'llash tartibi quyidagicha:

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiyadan foydalanish qoidalari bilan tanishtiradi

Texnologiya shartiga binoan o'quvchilardan biri (ya'ni "Tashkilotchi") xonadan chiqadi

Jamoaning boshqa a'zolari pedagogik nizolardan birini yorituvchi muammoli vaziyatni yaratib, uni muhokama qiladi va sahna ko'rinishini tayyorlaydi

Bu vaqtda "Tashkilotchi"ga rolining mazmuni tushuntirilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat haqida ma'lumot beriladi

"Tashkilotchi"ga ham tayyorgarlik ko'rish uchun ma'lum vaqt beriladi

Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, "Tashkilotchi" auditoriyaga taklif etiladi

Jamoa a'zolari pedagogik nizolarga asoslanuvchi lavhani namoyish etadi

"Tashkilotchi" lavhada ifodalangan nizoli vaziyatni bartaraf etishga harakat qiladi


O'qituvchi jamoa bilan birgalikda "Tashkilotchi"ning harakatlarini baholaydi

Mashg'ulot yakunida sinf (guruh) jamoasi "Shaxsning tashkilotchilik qobiliyati" mavzusida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi


KBI ("KUZATISH, BAHSLASHISH, ISHONTIRISH") STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchilarni hayotda o'z o'rinini topish yo'lida faollik ko'rsatishga rag'batlantirib, ularda yetakchilik, sardorlik sifatleri, jamoada ishlash ko'nikmalari, o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotda mazkur texnologiyani qo'llashda quyidagi shartlarga rioya etiladi:



Texnologiyadan foydalanish tartibi quyidagicha:




Izoh: har bir guruh o'z chiqishida tanlagan savol bo'yicha tushunchalari, mavzuga yondashuvlari, javoblarining to'g'ri ekanligiga jamoa a'zolarini ishonтира olishlari zarur.

“KEYS-STADI” METODI (YOKI “O'QUV KEYSLARI”)


“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o'quvchi (talaba)larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)larni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.


Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha:



Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi bosqichlarda kechadi:




Keys-stadi bo'yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi:




Ta'limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o'quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o'rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to'g'risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to'g'ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Texnologiya yordamida tanlangan muammoning yechimini topishga doir muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:




Muammoni muhokama qilishda e'tiborni quyidagilarga qaratish zarur:



Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik esseni yaratishda o'quvchi (talaba)lar mavzu g'oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo'ladi.

Mashe'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda vo'lga qo'yiladi:



“KLASTER” GRAFIK ORGANAYZERI

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:


Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring!

Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang!

Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to‘xtamang! Agar ma‘lum muddat o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring!

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating!


Metod yordamida o‘quvchi (talaba)lar topshiriq bo‘yicha fikrlarini Klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



“KONTSEPTUAL JADVAL” GRAFIK ORGANAYZERI

Metod o‘quvchi (talaba)larni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlar bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda o‘quvchi (talaba)larning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma‘lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:




O'quvchi (talaba)lar e'tiboriga quyidagi namunani tavsiya etish mumkin:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

“KUBIK” GRAFIK ORGANAYZERI

Metod turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o'rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o'rganiladigan mavzu (muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha (yo'nalish)lar mavjud. Metod mohiyatiga ko'ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko'rsatmalar o'z ifodasini topadi:



Izoh: “Kubik”ning olti qirrasidagi ko'rsatmalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko'zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering! Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e'tibor qaring!

2. Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o'xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

3. Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet Sizni nimalar haqida o'ylashga majbur etayapti? Xayollaringizga erk bering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o'xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

4. Tahlil qiling! Predmetning yasaliish (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasaliishini bilishingiz shart emas, buni o'ylab toping!).

5. Qo'llang! Predmetdan Siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?

6. Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalilllar topishga harakat qiling!

Metod o'quvchi (talaba)larni muayyan muammo (mavzu)ni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo yechimini topishni tezlashtiradi.

"KUNGABOQAR" STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va o'z fikrlarini erkin bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'rganilgan mavzuni takrorlash, o'quvchi (talaba)larning u borasidagi bilimlarini mustahkamlash, o'quvchi (talaba)lar tomonidan egallagan bilimlar darajasini aniqlashda samarali sanaladi.

Mazkur texnologiya quyidagi tartibda qo'llaniladi:

O'quvchi (talaba)lar 4-5 nafardan kichik guruhlariga birlashtiriladi

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bitta (yoki har bir guruh uchun bittadan) muammoni o'rtaga tashlaydi

Guruhlar tomonidan tonshirani baiarish uchun vaqt (10 daqiqa) belgilanadi

Berilgan topshiriqqa muvofiq har bir guruh muammo va uning yechimlari asosida yozuv taxtasida kungaboqar hosil qiladi (bunda markazga doira chizilib, uning atrofiga

Belgilangan vaqt ichida o'quvchi (talaba)lar jamoa yoki guruh bo'lib, o'rtaga tashlangan muammolar bo'yicha fikr almashadi (fikrlar "gulbarg"ga yozilib, tegishli muammo yozilgan "gul" (ya'ni doira)ga joylashtiriladi

Topshiriq to'la bajarilgach, har bir guruh o'z ishini namoyish qiladi

Sinf (guruh) jamoasi a'zolari har bir kichik guruhning ishi bilan tanishib, muammo yuzasidan tug'ilgan savol va mulohazalarni "kungaboqar"ning poiyasiga barg sifatida

Har bir guruh o'ziga berilgan savollarga javob qaytaradi

Barcha kichik guruhlarining ishlari o'rganilib, muhokama qilingach, o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi

Izoh: 1. Fikrlarning ko'pligiga qarab "kungaboqar" o'sib boradi.

2. Har bir guruh ishi yuzasidan mulohaza va fikrlarni bildirishga 6 daqiqa vaqt ajratiladi

"KUNDALIK" STRATEGIYASI

Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lardan tashkil etilgan "Sifat guruhi" a'zolarining har biriga yon daftarcha tarqatiladi. Daftarchalarga muhokama qilinayotgan muamмога oid bo'lib, haftaning muayyan kunida tug'iladigan g'oyalar yozib boriladi. Jamoa a'zolarining qaydlari guruh sardori tomonidan tahlil qilib qilinadi. To'plangan materiallar haftaning yakunida sinf (guruh) jamoasi yig'ilishida muhokama qilinadi.

Ushbu metodning shu jihati ahamiyatli bo'lib, u, birinchidan, paydo bo'lgan g'oya yoki ixtirochilik takliflari "Jamoa (yoki guruh) taklifi" nomini oladi; ikkinchidan, barcha noaniq va turli nuqtai nazardan iborat fikrlar guruh yig'ilishiga qadar oydinlashtiriladi. "Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas!" tarzida keskin bildirilgan fikrlar bir qadar "yumshatiladi". Muhokamaga odatda "me'yorlashtirilgan" fikrlar olib chiqiladi.

"KO'RGAZMA" STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni ko'rgazmali qurollar vositasida namoyish etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, texnologiya o'quvchi (talaba)larni ijodiy fikrlashga undaydi. Ko'rgazmali qurollar (tasvir, sxema, maket va b.)ni yaratish uchun o'quvchi (talaba)lar mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy g'oya, tushunchalarni ajrata olish, ular o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'liqlikni yuzaga keltirish layoqatiga ega bo'lishlari lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiya asosida ishlashlari uchun o'quvchi (talaba)larga namuna sifatida quyidagi sxema taqdim etiladi:

1-tasvir


2-tasvir

3-tasvir

4-tasvir

...

Mashg'ulotda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




"LABIRINT" STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchilarda o'quv va hayotiy faoliyatda uchraydigan turli holat, vaziyatlarni to'g'ri baholash, ulardan chiqa olish, tezlik bilan zarur yechimlarni topish ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Uni qo'llashda quyidagi tashkiliy vazifalar hal qilinadi:



Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




Izoh: o'qituvchi vaziyatning uch (to'rt, besh, olti va h.k.) yechimlarini aytib, ulardan birini tanlashni taklif etadi, so'ngra nima uchun bu variantni tanlaganliklarining sababini so'raydi.

“O'QUV LOYIHASI” METODI

Metod o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mashg'ulotlarda metoddan foydalanish o'quvchi (talaba)larda Rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma'lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar mavzu bo'yicha yangi loyihalarni yarata olishlari lozim. Loyihalarni yaratishda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniq fikr, belgi, tasvirlar yordamida ifodalanishi talab etiladi.


Metodning didaktik imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:



“MANTIQUIY CHALKASH ZANJIR” STRATEGIYASI

Metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. O‘quvchi (talaba)larning vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalangan ma’lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




Izoh: o‘qituvchi mustaqil ishlashini ta’minlash uchun har bir o‘quvchiga mazmunini biroz o‘zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin..

“MUSBAT, MANFIY, QIZIQARLI” (MMQ) STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)larni mavjud vaziyatning barcha detallarini puxta o'rganish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongini boyitish, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida MMQ metodini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tiborni qaratish, ularning salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o'rganib chiqilgandan Keyingina amalga oshirilishi mumkin.

O'quv fanlaridan bilimlarni o'zlashtirishda MMQ metodi qo'llanilsa, u holda o'quvchi (talaba)larning fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko'p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

MMQ metodi bir vaqtning o'zida o'quvchi (talaba)lar faoliyatini o'rganish va baholash metodi ham hisoblanadi. Uni qo'llash sxemasi quyidagicha:



Ta'lim jarayonida metoddan foydalanish muammoni oson, to'liq va batafsil o'rganishga yordam beradi.

“MENGASO'ZBERING!” STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarni dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'qituvchi va o'quvchi (talaba)lar o'rtasidagi ta'limiy hamkorlikni qaror topshirishga yordam beradi. Mashg'ulotlarda metodni qo'llash orqali o'quvchi (talaba)lar darsning tashkiliy jihatlarini, samaradorligi xususida o'z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchi (talaba)lar ishtirokida metodni qo'llash quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O'qituvchi o'rganilgan mavzu bo'yicha aniq muammoni tanlaydi.
2. O'quvchi (talaba)larning muammo yuzasidan fikr yuritishlari uchun vaqt hajmi (6 daqiqa) belgilanadi.
3. O'quvchi (talaba)lar muammo yuzasidan mushohada yuritadi.
4. Belgilangan vaqt yakuniga etgach, o'quvchi (talaba)lar navbatma-navbat muammoning yechimi xususidagi fikrlarini bildiradi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” STRATEGIYASI

Metod o'quvchi (talaba)larni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o'rganish, yechimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar jarayonida “Muammoli vaziyat” metodini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

“MUAMMO” STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni mavzudan kelib chiqib, turli muammoli masala yoki vaziyatlarning to'g'ri yechimini topish, muammo mohiyatini aniqlashga doir malakalarni shakllantirish, uni yechishning ayrim usullari bilan tanishtirish, yechimni topish uchun mos usullarni to'g'ri tanlash, muammoning kelib chiqish sabablari, Shuningdek, yechimni topishga yo'naltirilgan harakatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashga o'rgatadi.

Ta'lim jarayonida texnologiyani qo'llash quyidagicha kechadi:

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rnlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish qoidasi bilan tanishtiradi

Har bir guruh a'zosi rasm yoki matndagi hayotiy lavha bo'yicha birgalikda aniqlangan muammoni vatman qog'ozlarga flomaster yordamida yozadi

Berilgan vaqt nihoyasiga etgach, guruhlar o'z ishtarini namoyish qiladi

O'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlariga qayta tarqatadi

Har bir guruh a'zosi qog'ozlarda yozilgan muammolar orasidan o'zini qiziqirtirgan muammoni tanlab olib, uni o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan jadvalda qayd etadi va tahlil qiladi

Sinf (guruh) jamoasi o'qituvchi rahbarligida guruhlar hamda har bir o'quvchi (talaba)ning ishini muhokama qilib, eng yaxshi ishini tanlaydi

O'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi

Izoh: 1. O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiyadan foydalanish qoidalari bilan tanishtirishda mashg'ulotning bosqichli bo'lishi, har bir bosqichda o'quvchi (talaba)dan e'tiborli bo'lish talab qilinishi, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlariga urg'u berib o'tishi lozim. Bunday yo'l tutish o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishga ruhan tayyor bo'lishlariga yordam beradi, ularda qiziqini uyg'otadi.

2. Texnologiya asosida ishlashda o'quvchi (talaba)lar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, darslik, yordamchi adabiyotlardan biror bir materialni o'rganib, unda yoritilgan muammolarni aniqlaydi va ularni xotirada saqlab qoladi yoki daftarlarga belgilab qo'yadi.

3. O'quvchi (talaba)lar topshiriqni individual ravishda bajarishlari uchun o'qituvchi tomonidan quyidagi jadval tavsifiya etiladi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoning yechish yo'llari (amaliy harakatlar)
1.		
2.		
...		

“MUZYORAR” STRATEGIYASI


Metod o'quvchi (talaba)larni faollashtiruvchi, ma'lum faoliyatga jalb qiluvchi mashq bo'lib, ularning o'zaro tanishishlari va jamoada ishchanlik muhitini yaratish maqsadida qo'llanadi.

Uning asosiy vazifasi o'quvchi (talaba)ni o'zaro muloqotga chorlashdir.

Ko'pchilik notanish muhit (yangi jamoa, sinf, maktab, kurs)da o'zini noqulay sezadi va shu sababli jamoa bilan qo'shib ketolmaydi. Chunki ular hali jamoa, unda qaror topgan muhitdan xabardor emas. Bu esa ularning jamoa a'zolari bilan yaqindan munosabatda bo'lishlari, muloqotni tashkil etishlari yo'lidagi eng jiddiy to'siq sanaladi. Bordi-yu, jamoaga yaqinda kelgan shaxs uning loqal bir nafar a'zosi bilan tanish bo'lsa, bunday holatda uning yangi muhitga moslashishi oson kechadi.

Shu bois o'qituvchi (yoki boshlovchi) yangi sharoitda o'quvchi (talaba)larga o'zlarida ishonch hissini yuzaga keltiradigan do'stona muhitni, butun diqqatni jalb etadigan yoki ijodiy kayfiyatni ifodalay oladigan vaziyatni yaratib berishi kerak. “Muzyorar” metodi ana shu maqsadda qo'llaniladi. Metod o'qituvchi va o'quvchi (talaba)lar o'rtasidagi “muz”ni eritish, “devor”ni yo'qotishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida metodni qo'llash tartibi quyidagicha:




Izoh: O'quvchi (talaba)lar ta'riflarni yozma holda ifodalashlari lozim.

"MULOQOT" TRENINGI

Trening o'quvchi (talaba)larda dars jarayonida mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon etish, bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Izoh: Kichik guruhlar topshiriqni bajarish jarayonida mavzu yuzasidan material, dalil, fikrlarini tasdiqlovchi ko'rgazmali-didaktik vosita, imkoni bo'lsa, Videofil'm, maqola, ihtibos va boshqalarni tayyorlaydi.


"MUQOBIL IMKONIYATLAR TANLOVI" (MIT) STRATEGIYASI

Diqqatni yo'naltirishga yordam beradigan ushbu strategiya mavzularni puxta o'zlashtirish asosida o'quvchi (talaba)larning mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun keng imkoniyat yaratadi.

Odatda, o'quvchi (talaba)lar fikrlash jarayonida dalil harakat qilish o'niga imkoniyatlarni chamalashga urinadi. Ko'p hollarda o'z imkoniyatlarini past baholaydi. Strategiya o'quvchi (talaba)lar oldidagi ana shunday sun'iy to'siqni bartaraf qilish, dadil harakatlanishga yordam beradi. Unga ko'ra mavzuga oid tayanch tushunchalardan biri ajratib olinadi va garchi to'g'riligiga ishonch hosil qilinmasa-da, unga muqobil ta'riflar topiladi. Muqobil ta'rifni topish ma'lum afzalliklarga ega. Zero, ba'zan muqobil ta'riflar mavjud ta'riflarga nisbatan mavzu mohiyatini aniqroq, yorqinroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Strategiyadan foydalanishda, eng muhimi, ko'zlanayotgan maqsad haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab qilinadi. Zero, metod aniq maqsadga muvofiq qo'llanilgandagina samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ta'lim jarayonida strategiyani qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:



“NIMA UCHUN?” GRAFIK ORGANA YZERI

Metod o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan muammo yoki masala mohiyatini yorituvchi sabablarni aniqlash yuzasidan mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llashda o'quvchilar muammoning yechimini topishga tizimli, ijodiy yondashishlari, shu bilan birga sabablarni tahlil qila olishlari lozim. Metodni qo'llash shartlari quyidagicha:

1. Sxemada aks etadigan shakl (aylana, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat yoki uchburchak)larni o'quvchi (talaba)lar mustaqil tanlaydi.
2. Sxemaning tarkibiy tuzilishi – mulohazalar zanjirining to'g'ri yoki egri chiziqli bo'lishi ham o'quvchi (talaba)lar tomonidan belgilanadi.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari o'quvchi (talaba)larning dastlabki holatdan yechimni topishgacha bo'lgan faoliyatlarini ifodalaydi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi o'quvchilarni metodning mohiyati va shartlari bilan tanishtiradi

O'quvchi (talaba)lar kichik guruhlariga biriktiriladi

O'qituvchi guruhlariga mavzu bo'yicha ma'lum topshiriqlarni beradi

Guruhlar masalaning yechimini ifodalashi zarur bo'lgan sxemani yaratadi

Sxemada muammo (yoki masala)ning yuzaga kelish sabablari aks ettiriladi

Guruhlarning ishlari jamoada muhokama qilinib, eng yaxshi ish aniqlanadi

O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilutar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, to'rtburchak yoki aylana)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O'quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Hal etiladigan masala aniqlashtiriladi

O'quvchilar topshiriq mazmuni va uni echish shartlari bilan tanishtiriladi

O'quvchi (talaba)lar kichik guruh (yoki juftlik)larga biriktiriladi

Guruh yoki juftlik a'zolari markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g'oya, vazifa)ni qayd etadi

Guruh (juftlik)lar masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta shunday qo'shimcha chizmalarni hosil qiladi (ularda masalaning xususiy yechimlari bayon etiladi)

Qo'shimcha chizmalardagi g'oyalar gulning "gulbarglari"ga, ya'ni shunday alohida majmuaga olib chiqadi (ularning har biri vana bir muammo ko'rinishini oladi)

Yordamchi chizmalardagi etakchi muammo (g'oya, vazifa) atrofidagi "gulbarglar"da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi

O'rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin

Har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o'z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi


Guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, eng to'g'ri variant aniqlanadi

O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi

“RAQAMLAR” STRATEGIYASI

Metod yordamida bir vaqtning o'zida ko'p sonli (20, 30, 40 va h.k.) o'quvchi (talaba)larni muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. U asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 4, 5 yoki 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 4, 5 va 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:




“REZYUME” STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)lar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra o'rganilayotgan mavzuning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.


Bu texnologiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:



O'qituvchi o'quvchi (talaba)larga metoddan foydalanishda quyidagi sxema asosida ish ko'rishni tavsiya etadi:


Asosiy muammo:			
No	Xususiy muammolar	Yechimlari	Natiija
1.			
2.			
3.			
4.			
Xulosa:			



“ROTATSIYA” STRATEGIYASI

Metod mavzuni kichik guruhlarda o'rganish, asosiy g'oyalarni yozma bayon etish, guruhlar tomonidan taqdim qilingan ishlarni jamoa ishtirokida tahlil qilish imkonini beradi.


Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




“SAD” (UCHLIK – SAMARALI, AXLOQIY, DIDLI) STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlash, ijodkorlik, tashkilotchilik, ishga mas'uliyat bilan yondashish, bajarilgan ishni yuksak did bilan taqdim etish (namoyish qilish) ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:



Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Izoh: kichik guruhlarda o'quvchilar rassom, adabiy muharrir va dizayner (bezakchi) rollarni bajarishadi. Kichik guruhlar o'rganilgan mavzuga doir sxema, jadval, slayd, dekoratsiya, eskiz yoki ikebana tayyorlaydi.


"SWOT-TAHLIL" STRATEGIYASI

Metod muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. O'quvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jhati tahlil qilinadi:

S	⇒	Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish)
W	⇒	Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish)
O	⇒	Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash)
T	⇒	Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash)

Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash tartibi quyidagicha:



Izoh: Texnologiyani qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi texnologiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini o'quvchining yoshiga moslab, unga tushunarli so'zlar bilan ifodalashi (o'zgartirishi) mumkin. O'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)larga texnologiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

“SINKVYEN” STRATEGIYASI

J.Still, K.Meredis, CH.Temil tomonidan ishlab chiqilgan “O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da har bir o'quvchi (talaba) va


o'quvchi (talaba)lar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun "Sinkveyn" metodini qo'llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o'rinda metodning mohiyati bilan tanishib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn (frantsuzcha "besh qator" ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (talaba) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

Sinkveyn tuzish – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, Sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:



Sinkveynlar quyidagi holatlarda samarali sanaladi:

Murakkab
axborotni sintezlashda

O'quvchi (talaba)larning
bilimlarini baholashda

O'quvchi (talaba) tomonidan
ijodiy ishlanmalarning taqdim
etilishida

Sinkveynlar samaralidir


"SKARABEY" STRATEGIYASI

"Skarabey" ("Qo'ng'iz") Texnologiyasi o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash qobiliyatini, xotirani, Shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasini rivojlanishiga xizmat qiladi. O'quvchi (talaba)

texnologiyani qo'llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko'lamini aniqlash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Texnologiya, Shuningdek, turli g'oyalarni ochiq, erkin, mantiqan ifodalash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ham samarali sanaladi.

Uning yordamida o'quvchi (talaba)larda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash; muloqatga erkin kirisha olish; xushfe'llik, o'zgalar fikrini hurmat qilish; faollik; faoliyatga ijodiy yondashish; faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish; o'z-o'zini baholash.

Undan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Ya'ni:




Texnologiya o'quvchi tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

“SINDIKAT” STRATEGIYASI

“Sindikati” (yunoncha “birgalikda harakat qilish”, “maslakdoshlik”) metodi o'quvchi (talaba)larda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o'rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.


Har bir guruh yagona topshiriqni uch xil variantda hal etishi lozim. M: o'rganilayotgan mavzu mohiyatini 1-guruh sxema, 2-guruh Klaster, 3-guruh esa jadval tarzida ochib berishi kerak. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, ular tomonidan taqdim etilgan yechim (ishlanma)lar jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

Metodni qo'llash tartibi quyidagicha:



Texnologiya o'quvchi (talaba)larda muayyan yo'nalishda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash yuzasidan muayyan tavsiyalarni ilgari surish ko'nikmasini shakllantiradi. Ilgari surilayotgan tavsiyalar mazmunan masalaning yechimini topishga yordam berishi, ilmiy jihatdan pedagogik amaliyotga mos kelishi lozim.

Uni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'riladi:




Texnologiyani qo'llashda o'quvchi (talaba)lar guruh (juz'lik)larga birlashgan holda va individual faoliyat yuritishlari mumkin. Mashg'ulotda o'quvchi (talaba)lar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar umumlashtiriladi.

"TANISHUV" TRENINGI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni jamoa bo'lib yoki kichik guruhlariga birlashgan holda ishlash, guruh yoki jamoada samimiy, do'stona muhitni hosil qilishga yordam beradi. U, shuningdek, har bir o'quvchi (talaba)ni faollashtirib, tengdoshlari haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish, shaxsiy sifatlarini o'rtoqlaridagi mavjud xislatlar bilan taqqoslash, o'zini va guruh a'zolarini boshqalarga tanishtirish imkoniyatini yaratadi.

"Tanishuv" texnologiyasini umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- va 5-sinflari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarining 1-bosqichi, muayyan maqsad atrofida birlashgan jamoa shakllanishining boshlang'ich davrida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, fan to'garaklarida, bolalar oromgohlarida qo'llash samarali sanaladi. Shu bilan birga texnologiya o'quvchi (talaba)larga o'zlaridagi ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish uchun qulay sharoit yaratib berishi bilan ham beqiyos ahamiyatga ega.

Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi to'rt bosqichda kechadi:




Izoh: Guruhlarning ishlari "Ekspert guruhi" tomonidan ham baholanishi mumkin. Buning uchun tayyorgarlik bosqichida o'quvchi (talaba)lar orasidan "Ekspert guruhi" uchun a'zolar ajratiladi va o'qituvchi ularning vazifasini tushuntiradi. "Ekspert guruhi" guruhlar ishini baholashda xolislikka alohida e'tibor berishi zarur.

“TASHVIQOT GURUHI” STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq va qisqa dalillilar asosida bayon qilish orqali ularni ishontrish, muammoning mohiyati bilan tengdoshlarni tanishtirish (ular o'rtasida mavzu mazmunini targ'ib qilish) ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash tartibi quyidagicha:



Izoh: 1. O'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)lar e'tiboriga havola etilayotgan muammoli mavzu o'quv predmeti yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida bo'lishi mumkin.

2. Guruhlar chiqishlarining qiziqarli, adabiy jihatdan yuqori saviyada, ko'rgazmali, musiqiy xarakterga ega bo'lishi talab qilinadi. CHiqishlarning Videofil'm, slayd yoki kliplar asosida bo'lishi yanada ta'sirchan, samaralidir.


3. Ijodiy guruhlarining chiqishlarini muhokama qilish chog'ida tanlangan mavzuning dolzarbligi, uning yoritilishi, mavzuni yoritishga bo'lgan ijodiy yondashuv, jihozlar va yordamchi vositalardan o'rinli foydalanilganlik, chiqishning targ'ibot g'oyalari bo'yli, ta'sirchanligi, tarbiyaviy xarakterga egaligi kabi jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

4. Guruhlar chiqishlarni tashkil etish uchun o'zlarini tanishtiruvchi belgi yoki emblema, shuningdek, shior tanlashlari ham mumkin.

“TAQDIMOT” STRATEGIYASI

Metod o'rganiladigan mavzu mohiyatini komp'yuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib berilishini ta'minlaydi. Uni qo'llashda mavzuning asosiy g'oyalari, tayanch tushunchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Metod o'quvchi (talaba)larda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida metodni qo'llash tartibi quyidagichadir:




Izoh: 1. O'qituvchi kichik guruhlarga bir yoki bir necha mavzuni tavsiya etishi mumkin.

2. Guruhlar garchi bir mavzu bo'yicha faoliyat ko'rsatsalar-da, biroq, ular topshiriqni turli (kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm, diagramma va b.) shakllarda bajaradi. Bu esa o'quvchi (talaba)lar tomonidan mavzuni yanada chuqur va puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.

“T-JADVAL” GRAFIK ORGANAYZERI

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



Mashg'ulotlarda "T-jadval" metodidan foydalanish uchun o'quvchi (talaba)larning e'tiboriga quyidagi sxema taqdim etiladi:


O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

"TOIFALASH" GRAFIK ORGANAYZERI

Metod o'quvchi (talaba)larni o'rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat, jihatlarni aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi.

Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar quyidagilarga e'tiborni qaratadi:



Mashg'ulotlarda metoddan foydalanish tartibi quyidagicha:

O'qituvchi muhim xususiyatlari belgilanishi lozim bo'lgan mavzu (masala yoki muammo)ni aniqlab, o'quvchi (talaba)larni kichik guruhlariga airatadi

O'quvchi (talaba)lar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda "Toifalash" metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladi

Kichik guruhlariga ma'lum topshiriqlar beriladi

Kichik guruhlar topshiriqni bajaradi (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydi, ularni jadval yordamida ifodalaydi)

Kichik guruhlar o'z yechimlarini jamoa e'tiboriga taqdim etadi

Jamoa tomonidan kichik guruhlarining ishlari muhokama qilinadi

"FSMU" STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchi (talaba)larga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ta'lim metodlari				
2.	Ta'lim vositalari				
3.	Ta'limni tashxis qilish				
Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmunni anglatadi: (F) – fikringizni bayon eting; (S) – fikringizni asoslovchi biron sababni ko'rsating; (M) – ko'rsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi misol keltiring; (U) – fikringizni umumlashtiring!					

Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi texnologiya mohiyatini yoritib, o'quvchi (talaba)larni texnologiyadan foydalanish shartlari bilan tanishtiradi

Har bir o'quvchi (talaba)ga texnologiyaning sxemasi tushirilgan qog'ozlar taqdim etiladi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larga ushbu sxema asosida mavzu mohiyatini yoritishga oid topshiriqni beradi

O'quvchi (talaba)lar kichik guruhlarda topshiriqni bajaradi

Kichik guruhlar o'z yechimlarini jamoaga ma'lum qiladi

Jamoa kichik guruhlarining yechimlarini muhokama qiladi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larning mashg'ulot samaradorligi yuzasidan fikrlarini tinglaydi va mashg'ulotga yakun vasaydi

"CHARXPALAK" STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larda o'rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to'g'ri javob berish, o'z-o'zini baholash malakalarini shakllantirish, o'qituvchi tomonidan qisqa vaqtda o'quvchi (talaba)larning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o'z-o'zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko'nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat.

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiyani qo'llash tartibi bilan tanishtirib, ularni guruhlarga ajratadi

Guruhlarga tarqatmali materallar va ular asosida topshiriqlar beriladi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi

A'zolar guruh tarkibida individual ravishda tarqatmali materialda ko'rsatilgan vazifani bajaradi (bajarilgan ishning o'ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o'ziga tegishli bo'lgan biror belgini qo'yadi)

Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, tarqatmali materiallar boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi

Har bir guruh tomonidan yangi material mazmuni o'rganiladi va o'zgartiriladi

Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, tarqatmali materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan "Charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi (guruhlar o'rtasida materiallarning o'zaro almashtirish ularning soniga ko'ra takrorlanadi)

Guruhlar (ularning har bir a'zosi) o'z yechimlarini bitta qutiga yig'adi

Materiallar so'nggi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh (har bir o'quvchi) o'zi bajargan yechimni (guruh raqami va o'ziga teshishli belgi asosida) tanlab oladi

Har bir guruh va uning a'zolari o'zlarining yechimlarini boshqa guruhlarining ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi

O'qituvchi jamoa yordamida to'g'ri javoblarni aniqlaydi

Tahlil asosida har bir guruh va o'quvchilarning faoliyati baholanadi (bir vaqtning o'zida o'quvchilar ham o'z-o'zini baholaydi)


Texnologiyadan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarida, mashg'ulotning boshi yoki oxirida, muayyan bo'lim (bob) yakunida, o'tilgan mavzuni takrorlash chog'ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga texnologiya o'quvchi (talaba)larning bilimlarini mustahkamlash, o'rganilgan mavzularning o'quvchi (talaba)lar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samarali sanaladi.

"YUMALOQLANGAN QOR" STRATEGIYASI

Metod mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beradi, o'quvchi (talaba)larda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga

xizmat qiladi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)lar juftlik, guruh yoki jamoa bo'lib ishlari mumkin.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:




“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish samaralidir.

“YALPI FIKRIY HUJUM” STRATEGIYASI

Texnologiya J.Donal'd Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchi (talaba)lardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. U o'quvchi (talaba)lar tomonidan yangi g'oyalarning o'rta tashlanishi uchun zarur sharoitni yaratib berishga xizmat qiladi.


Mashg'ulotlarda texnologiyani qo'llash tartibi quyidagicha:




“QANDAY?” GRAFIK ORGANAYZERI

Metod o'quvchi (talaba)larda o'rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Uni qo'llashda o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:





Izoh: 1. Yangi g'oyalar grafik, Klaster, tasvir ko'rinishida bo'lishi mumkin.

2. Muammoning yechimi "Buni qanday bajarish lozim?", "Qanday yo'l tutish to'g'ri?" kabi savollariga javob topish asosida hal qilinadi.

3. Muammoni yechishda "nima qilish kerak"ligi yuzasida o'ylanib qolmaslik lozim.

4. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega.

5. Metodni qo'llashda muammoni yechish yo'llarigina izlanmay, ulardan samarali foydalanish chorolari ham o'rganiladi.


"QARAMA-QARSHI MUNOSABAT" STRATEGIYASI

Metod o'z mohiyatiga ko'ra o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo'lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi.

O'quvchi (talaba)lar faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ularning e'tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

Tayanch tushunchalar:			
№	Muhim tushunchalar	№	Muhim bo'lmagan tushunchalar
1.		1.	
2.		2.	
...		...	


Mashg'ulotda metodni qo'llash tartibi quyidagicha:



“QARORLAR SHAJARASI” (“QAROR QABUL QILISH”) STRATEGIYASI

Texnologiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda texnologiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun o‘quvchi (talaba)lar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda o‘quvchi (talaba)lar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):



Mazkur texnologiyanning o‘ziga xos jihati shundaki, u bevosita ma’lum loyiha asosida qo‘llaniladi. Loyiha quyidagi ko‘rinishga ega:

Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

Texnologiya quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

Mashg'ulot chog'ida o'qituvchi eng avval munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi; guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni 4 yoki 6 nafardan kichik guruhlariga ajratadi; muammoning hal etish oqilona qaror qabul qilish uchun aniq vaqt belgilanadi

Qaror qabul qilishda guruhlarining har bir a'zosi bildirgan variantning maqbul, nomaqbuli batafsil muhokama qilinib, afzalligi, afzal emasligi yozib boriladi; bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beradigan usul haqida guruh a'zolari bir to'xtama kelib oladi

Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhning lideri guruh qarorini e'lon qiladi; bildirilgan barcha xulosa (qaror)lar o'qituvchi boshchiligidagi o'zaro qiyoslanadi

Izoh: 1. Muammo bo'yicha bildirilgan qarorlar yuzasidan savollar tug'alsa, ularga javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi.

2. Agarda barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

“QORA QUTI” STRATEGIYASI


Metodni qo'llashdan maqsad o'quvchi (talaba)lar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish, ularni faollikka, hamkorlikda ishlashga undash, vaziyatni boshqarish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Undan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

1. O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.
2. O'quvchi (talaba)lar juftlik (yoki kichik guruh)larga birlashtiriladi.
3. Juftlik (kichik guruh)larga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h.k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi.
4. Juftlik (guruh)lar muayyan vaqt oralig'i (10-15 daqiqa)da topshiriqni bajaradi.
5. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o'qituvchi jamoa bilan hamkorlikda juftlik (guruh)lar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradi.
6. Topshiriqni to'g'ri bajaragan o'quvchi (talaba) o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi.
7. Jamoa a'zolari yozuv taxtasida qayd etilgan fikr (tayanch so'zlar, sanalar, raqamlar, belgilarning ma'nolari)ni sharhlaydi.
8. To'g'ri javob bergan o'quvchi “O'qituvchi” rolini bajarib, juftlik (guruh)larga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval, tasvir yaratish vazifasini topshiradi.
9. “O'qituvchi” rolini bajarayotgan o'quvchi (talaba) o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.
10. O'qituvchi barcha juftlik (guruh)larning ishini baholab, mashg'ulotni yakunlaydi.

“QORBO‘RON” STRATEGIYASI

Metod mashg‘ulotni o‘zaro musobaqa ko‘rinishida tashkil etilishini ta‘minlaydi. Uni qo‘llashda o‘quvchi (talaba)lar mavzu yuzasidan tezkor, asosli, to‘g‘ri fikrlay olishlari lozim. Metodni qo‘llash quyidagi tarzda kechadi:




“6X6X6” STRATEGIYASI

Metod yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchi (talaba)ni muayyan faoliyatga jalb qilish orqali topshiriq yoki masalani hal etish, guruhlarining har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash, qarashlarini baholash mumkin. U asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a‘zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib, yechimlarni birgalikda muhokama qiladi.

Izoh: 1. O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lishda o‘qituvchi quyidagicha yo‘l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob‘ekt (m: kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati aks etgan lavhani qo‘yib chiqadi. Mashg‘ulot ishtirokchilariga kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit, akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi (talaba) o‘zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

2. O‘qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib borishda zarur bo‘lganda ularga maslahatlar berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, guruhlar tomonidan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda tashkil etiladi:



“3X4” STRATEGIYASI

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni aniq bir muammoni yakka holda fikrlab hal etish, yechimini topish, g'oyalar orasidan muhimini tanlay bilish, bir necha muhim fikrni umumlashtirish, ular asosida muammo yuzasidan aniq tushuncha hosil qilish va o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. U o'quvchi (talaba)larni mustaqil fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, fikrlarni jamlab, nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilish, jamoaga o'z fikrini o'tkazish, o'z fikrini ma'qullash, muammoni yechish va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'rganilgan barcha mavzular bo'yicha egallangan bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Texnologiya yordamida o'quvchi (talaba)lar topshiriqlarni dastlab individual, so'ngra kichik guruhlar tartibida yozma shaklda bajaradi.

Izoh: 1. Guruhlar sonining to'rtta bo'lishi texnologiya sarnadorligi ta'minlaydi. Bunda mashg'ulot zerikarli bo'lmaydi. Agar guruhlar soni 4 tadan ortiq bo'lsa, guruhlarni ikkita katta guruhlariga ajratish mumkin.

2. Tarqatmali materialda ko'rsatilgan mavzu bo'yicha 3 ta tayanch tushuncha (so'z, so'z birligini yoki 3 ta gap) yozish talab etiladi.

3. Dastlabki topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini o'zgartiradi (1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh 4-guruhning, 4-guruh 1-guruhning o'rnini egallaydi). Bu holat har bir guruh o'zining dastlabki o'rniga yetib kelgunga qadar davom etadi.

4. Guruhlarning taqdimotidan so'ng har bir o'quvchi (talaba) ham individual ravishda o'zining mualliflik ishini namoyish qilishi mumkin.

Mashg'ulotda texnologiyani qo'llash tartibi quyidagicha:

1. O'quvchi (talaba)lar ularning soniga ko'ra kichik guruhlariga ajratiladi.
2. O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiya mohiyati va uni qo'llash tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir kichik guruhga yuqori qismida yozuvi bo'lgan qog'ozlar tarqatiladi.
4. Kichik guruhlar belgilangan vaqt mobaynida topshiriqni bajaradi.
5. Topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini o'zgartiradi.
6. Bir guruhning o'rnini olgan 2-guruh avvalgi guruhning ishini davom ettiradi (ya'ni avvalgi guruh ishi bilan tanishib, unga uchradan yangi fikr yozib qo'yadi).
7. Guruh a'zolari yana bir bor joylarini almashtiradi.
8. Guruhlarning almashinuvi ular dastlabki o'rinlariga qaytib kelgunlaricha davom ettiradi.
9. O'z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatmali materiallar asosida to'plangan barcha fikrlarni o'rganadi va umumlashtirib, yaxlit holatga keltiradi.
10. Har bir guruhdan bir nafar vakil chiqib, guruh ishini taqdim etadi.
11. O'qituvchi guruh (o'quvchilar)ning ishlarini izohlab, ishlanmalarni baholaydi

“OLTITA FIKRLOVCHI QALPOQCHA” (“OLTITA O'Q”) STRATEGIYASI

Metod muayyan mavzu (muammo) yuzasidan bir necha, ya'ni har bir urinishda bittadan fikrlash operatsiyasining bajarilishini ta'minlovchi harakat mohiyatini ifodalaydi. Unga ko'ra o'quvchi (talaba)lar 6 xil rangdagi qalpoqlarni kiyish orqali fikrlashning muayyan jarayonlarini amalga oshiradi.

Qalpoqlarning rangi quyidagilarni anglatadi:

Oq qalpoq	Dalil va raqamlarga tayangan holda ma'lumot (axborot)lar aniq ifodalash talab qilinadi
Qizil qalpoq	Hissiyot, sezgi, intuitsiya asosida muammoni oldindan his etish
Qora qalpoq	Fikrlarni ifodalashda ehtiyotkor bo'lish, dalillarning haqiqatga mos kelishini ta'minlash, mulohazaning oqilona bo'lishi lozimligini yodda tutish
Sariq qalpoq	Muammoni samarali hal etish yo'llarini izlash, natijalarni ko'ra olish, ahamiyatini baholash zarur
Yashil qalpoq	Ijodiy izlanish, turli takliflarni ko'rib chiqish, yangi g'oyalarni ilgari surish va muqobil variantlarni izlash lozim
Ko'k qalpoq	Fikrlarni tahlil, fikrlash jarayonini nazorat qilish orqali fikrlarni mumlashtirish, yakuniy qaror qabul qilish

Fikrlovchi qalpoqchalardan ikki yo'l bilan: ixtiyoriy (2 ta qalpoqchadan) va izchi (navbat bilan barcha qalpoqchadan) foydalanish mumkin.

XOTIMA

Metodik qo'llanmada ko'rsatib o'tilganidek, har bir interfaol metod ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi (pedagog) va ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)lar, o'quvchi (talaba) va o'quvchi (talaba)lar guruhi, Shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlashda, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu o'qituvchi (pedagog)lardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)lardan har bir interfaol metodning mohiyati, xususiyati, qo'llanilish shartlari bilan batafsil tanishib chiqish, amaliy ahamiyatini to'g'ri baholay olish talab qilinadi. Mazkur qo'llanma ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi (pedagog)lar uchun amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Bukatov V.M., Ershova A.P. Nyeskuchnyye uroki. Obstoyatel'noye izlozheniye igrovyykh tekhnologiy obucheniya shkol'nikov / Posobiye dlya uchityel'ey fiziki, matematiki, geyografii, biologii. – Pyetrozavodsk: PGPI, 2008. – 188 s.
2. Bukatov V.M. Pedagogicheskiye tainstva didakticheskix igr / 2-ye izd., ispr. i dop. – Moskva: TSyentr innovatsiy i razvitiya, 2003. – 152 s.
3. Panina T. S., Vavilova L.N. Sovryemnyye sposoby aktivizatsii obucheniya / Uchebnoye posobiye. Pod ryed. T.S.Paninoy. – 4-ye izd., styer. – Moskva: Izdatyel'skiy tsyentr "Akadyemiya", 2008. – 176 s.
4. Panfilova A.P. Innovatsionnyye pedagogicheskiye tekhnologii. Aktivnoye obucheniye / Uchebnoye posobiye. – Moskva: Izdatyel'skiy tsyentr "Akadyemiya", 2009. – 192 s.
5. Psixologo-pedagogicheskoye soprovodzeniye realizatsii innovatsionnix obrazovatel'nykh programm / Pod ryed. YU.P.Zinchyenko, I.A.Volodarskoy. – Moskva: Izd-vo MGU, 2007. – 120 s.
6. Situatsionnyy analiz ili anatomiya Keys-metoda / Pod ryed. YU.P.Surmina. – Kiyev: TSyentr innovatsiy i razvitiya, 2002. – 286 s.
7. Sovryemnyye obrazovatel'nyye tekhnologii / Uchebnoye posobiye. Pod ryed. N.V.Bordovskoy. – 2-ye izd., styer. – Moskva: KNORUS, 2011. – 432 s.
8. Stupina S.B. TEXNologii INTERaktivnogo obucheniya v vysshey shkole / Uchebno-metod. posobiye. – Saratov: Izdatyel'skiy tsentr "Nauka", 2009. – 52 s.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // "Maktab va hayot" jurnaliga ilova. – Toshkent: O'zPFITI, 2003. – 32 b.
10. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.
11. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Fan", 2005. – 205 b.
12. http://pedsovet.org/component/option,com_mtree/task,viewlink/link_id,1733/Itemid,118.
13. <http://planeta.tspu.ru/?ur=810&ur1=863&ur2=1037>.
14. <http://www.bj.pu.ru/method/4-13.html>.
15. <http://www.openclass.ru/communities/6134>.
16. http://ru.wikipedia.org/wiki/Metod_y_obucheniya.
17. <http://www.anovikov.ru/artikle/forms.htm>.
18. http://letopisi.ru/index.php/INTERaktivnyye_metod_y_obucheniya.
19. <http://paidagogos.com/?p=124>.
20. http://innarusskova.ru/publ/interaktivnoe_obuchenie/1-1-0-6.
21. <http://www.sportedu.by/Student/Student.php?ind=8>.
22. <http://www.emer.kz/activity/obu4enie/maximum.php>.

ILOVA

INTERFAOL METODLAR ASOSIDAGI DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR

TARIX FANI BO'YICHA (5-SINF UCHUN)

Darsning mavzusi: Dukchi Eshon qo'zg'oloni.

Darsning maqsadi: Dukchi Eshon qo'zg'oloni xususida o'quvchilarga ma'lumotlar berish asosida ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

Dars jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarga Dukchi Eshon qo'zg'oloni, uning kelib chiqish sabablari, qo'zg'olonning borishi va yakunlari to'g'risida ma'lumotlar berish.

2. O'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishlariga erishish.

3. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qahramonlar hayoti va faoliyatiga nisbatan hurmat uyg'otish.

4. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

Dars jihozlari: izohli lug'at, "O'zbekistonning tarixiy shaxslari" nomli al'bom, tasvir, jadval, adabiyotlar.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi interfaol metodlar: suhbat, savol-javob, Test, "Qora quti", "5X5X5" hamda "Klaster" metodlari.

Darsning Rejasi:

1. Dukchi Eshon –tarixiy shaxs va milliy qahramonlardan biri.

2. Dukchi Eshon qo'zg'olonini keltirib chiqargan sabablar.

3. Dukchi Eshon qo'zg'olonining borishi.

4. Qo'zg'olonning yakuni.

Darsning borishi:

I. "5X5X5" metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirish.

Sinf o'quvchilari 5 nafardan bo'lib 5 ta guruhga bo'linadi. Mavzuning umumiy matni 5 qismga bo'linib, har bir qism muayyan guruhga beriladi va guruhlariga matnni o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi. Matn guruhlar tomonidan o'rganilgandan so'ng guruhlar qayta tashkil etiladi (bu o'rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a'zosi bo'lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so'ng har bir o'quvchi o'zi o'zlashtirgan ma'lumotlarni qolgan o'quvchilarga hikoya qilib beradi. SHu tarzda mavzu matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

II. Savol-javoblar asosida suhbat tashkil etish. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Dukchi Eshon qanday shaxs?

2. Dukchi Eshon rahbarligidagi qo'zg'olonning boshlanishiga qanday omillar sabab bo'ldi?

3. Dukchi Eshon rahbarligidagi qo'zg'olon qachon boshlandi?

4. Ushbu qo'zg'olon qanday yakunlandi?

5. Podsho ma'muriyati qo'zg'olonchilarni qanday jazoladi?

III. "Qora quti" metodi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash.

Metod vositasida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar juftlikka birikadi va ularga Dukchi Eshon qo'zg'olonining mohiyatini yorituvchi asosiy sanalarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O'qituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni to'g'ri bajargan juftlikning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va yozuv taxtasiga quyidagi tarixiy sanalarni yozadi:

1887 yil, 1898 yil 11-may, 1898 yil 18-may

So'ngra o'quvchilardan ushbu sanalar qanday ma'no anglatishini so'raydi, to'g'ri javob bera olgan o'quvchi "O'qituvchi" rolini ijro etadi va o'quvchilardan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi beshta tushunchani kartochkalarga yozishni so'raydi; o'qituvchi yordamida juftliklar topshiriqni qanday bajarganini tekshiradi va yozuv taxtasiga quyidagi atamalarni yozadi:

Muhammad Ali, Mingtepa, eshon, Andijon, dor

"O'qituvchi" rolini bajarayotgan o'quvchi tengdoshlaridan ushbu so'zlar nimalarni anglatishini so'raydi.

IY. "Beshinchisi ortiqcha" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan ro'yxatdan mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang! Tushunchalar:


**1887 yil, Andijon, Muqanna, Mingtepa, dor,
Muhammad Ali**

Y. "Klaster" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo'yicha qanday tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lsalar, ularni qog'ozga yozish vazifasi topshiriladi. Fikrlar tugagandan so'ng har bir guruh tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-biriga bog'lab chiqadi (Keyingi sahifa).

Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ahamiyat bermaslik, nimaniki o'ylagan bo'lsa, shuni yozib borish talab etiladi. YOzuVning texnik (orfografik, mantiqiy va hokazo) jihatlariga e'tibor bermaslik aytib o'tiladi.

Dukchi Eshon qo'zg'oloni



Dars mavzusi: Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi.

Dars maqsadi: Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lishlarining ijtimoiy jamiyat uchun ahamiyati borasida o'quvchilarda tushunchalar hosil qilish orqali ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lish ehtiyojini qaror toptirish.

Dars jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar:

1. O'quvchilarni jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga doir davlat siyosati mazmunidan ogoh etish.

2. O'quvchilarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlarida bayon etilgan huquqiy madaniyat va uni shakllantirish borasidagi qarashlar bilan tanishtirish.

3. O'quvchilarga "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" to'g'risida ma'lumotlar berish.

4. O'quvchilarga jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish.

5. O'quvchilarda huquqiy ong, uning mohiyati hamda xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilish.

6. O'quvchilarga huquqiy madaniyat, uning mohiyati, xususiyatlari, tarkib topish yo'llari xususida batafsil ma'lumotlar berish.

7. O'quvchilar tomonidan "qonuniylik", "huquqiy tartibot", "huquqiy ta'lim", "huquqiy tarbiya", "huquqiy ong" va "huquqiy madaniyat" tushunchalarining o'zlashtirilishiga erishish.

Mashg'ulot mazmuni:

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish borasidagi davlat siyosatining mazmuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida ilgari surilgan g'oyalar.

3. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" mazmuni.

4. Qonuniylik va huquq targ'ibotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati.

5. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat, ularning mohiyati, xususiyatlari.

6. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish yo'llari va bosqichlari.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metod va vositalar: tushuntirish, og'zaki hikoya, namoyish etish, o'quv manbalari va ko'rsatmali qurollar bilan ishlash, mashq qildirish, suhbat, muammoli vaziyatlarni hal etish, texnik vositalardan foydalanish, Debat, chizmalar, tarqatma materiallar.

Dars shakllari: ma'ruza, suhbat, sinf-dars, muammoli vaziyatlarni hal etish.

Usullar: nutq, oyoq-qo'l va gavda harakatlaridan unumli foydalanish.

Maqsadning natijalanganligi: o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi, agarda mashg'ulot jarayonida quyidagi didaktik talablarga amal qilinsa:

- maqsadning aniqligi;

- mashg'ulot mazmunining puxtaligi, shakl, metod va vositalarining samarali ekanligi;

- mashg'ulot jarayonida texnik vositalar xizmatidan samarali foydalanish;

- mashg'ulot jarayonida o'quvchilar yosh va psixologik xususiyatlarining hisobga olinganligi, mustaqilligining ta'minlanganligi;

- o'quvchilarning mashg'ulotga bo'lgan ijobiy munosabatlari, faolliklari va b.

Nazorat va baholash usullari: yakka tartibdagi, guruhli va ommaviy so'rovlar, Test asosida o'quvchilar tomonidan mavzuning o'zlashtirish darajasini aniqlash.

Nazorat uchun tavsiya etiladigan savollar:

1. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga oid davlat siyosati mazmunini Siz qanday tushundingiz?

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlarida ilgari surilgan "huquqiy madaniyat" tushunchasiga munosabat bildiring.

3. "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi" mazmuni nimalardan iborat?

4. Huquqiy ong nima?

5. Huquqiy madaniyat deganda Siz nimani tushunasiz?

6. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni tarkib toptirish yo'llari, bosqichlarini aytib bering.

7. Qonuniylik nima?

8. "Huquqiy tartibot" tushunchasi nimani anglatadi?

9. Huquqiy ta'lim nima?

10. Huquqiy tarbiya qanday tashkil etiladi?

11. Siz o'zingizda huquqiy madaniyat unsurlari mavjud deb o'ylaysizmi?

12. Fuqarolar tomonidan qonunlari behurmat qilinadigan jamiyat taqdirini Siz qanday belgilangan bo'lardingiz?

13. YUksak darajada huquqiy madaniyatli inson bo'lish mumkinmi?

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari darajasi ular tomonidan tayyorlangan referat, yozma ish, og'zaki jurnal, devoriy gazeta, chizma va boshqalar asosida tekshirildi.

O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi umumiy reyting nazorati asosida baholanadi.

Darsning mavzusi: O'.Hoshimovning hayoti va ijodi. "Dunyoning ishlari" asari.

Darsning maqsadi: O'quvchilarni O'.Hoshimovning hayoti va ijodi bilan tanishtirish hamda "Dunyoning ishlari" asarining mohiyatini o'rganish.

Dars jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. O'quvchilarga O'.Hoshimovning hayoti va ijodiga oid bilimlarni berish.

2. O'quvchilarni "Dunyoning ishlari" asarining mazmuni bilan tanishtirish.

3. O'quvchilar tomonidan asarning mazmuni va mohiyatining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlash.

4. O'quvchilarda onalarning buyuk zot ekanliklari to'g'risidagi tushunchani qaror toptirish.

5. O'quvchilarda onalarga nisbatan cheksiz hurmatni uyg'otish.

Dars jihozi: O'.Hoshimovning portreti, adib ijodi xususida ma'lumot beruvchi jadval, "Dunyoning ishlari" asarining nusxasi.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: suhbat, savol-javob, "5X5X5", "3/3", "Tafakkur cho'qqisi".

Darsning Rejasi:

1. O'.Hoshimov – zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalariidan biri.

2. "Dunyoning ishlari" asarining asosiy g'oyasi.

3. Asarda onalarga xos bo'lgan fazilatlarining yoritilishi.

Darsning borishi:

1. "4X8X4X8" metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirish.

Sinf o'quvchilari 4 nafardan bo'lib 8 ta guruhga bo'linadi. Mavzuning umumiy matni 8 qismga bo'linib, har bir guruhga bitta qism beriladi va matnni o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi.

Guruhlarga darslik matnining quyidagi qismlari tavsiya etiladi:

1-guruhga – O'.Hoshimovning hayoti va faoliyatiga oid qism.

2-guruhga – asarning "Oq, oydin kechalar" nomli bandi.

3-guruhga – asarning "Tush" nomli bandi.

4-guruhga – asarning "Gilam paypoq" nomli bandining 1-yarmi.

5-guruhga – asarning "Gilam paypoq" nomli bandining 2-yarmi.

6-guruhga – asarning "Alla" nomli bandining 1-yarmi.

7-guruhga – asarning "Alla" nomli bandining 2-yarmi.

8-guruhga – asarning "Itijo" nomli bandi.

Matn guruhlar tomonidan o'rganilgandan so'ng, guruhlar qayta tashkil etiladi (bu o'rinda har bir guruhda avvalgi beshta guruhning bir nafar a'zosi bo'lishi shart). Guruhlar qayta tashkil etilgandan so'ng har bir o'quvchi o'zi o'zlashtirgan ma'lumotlarni guruhdoshlariga hikoya qilib beradi. SHu tarzda mavzuning umumiy matni o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

II. Savol-javoblar asosida suhbat tashkil etish. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. O'.Hoshimovning hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Adib tomonidan qanday asarlar yaratilgan?

3. "Dunyoning ishlari" asar qanday janrda yozilgan?

4. Asarning asosiy qahramonlari kimlar?
5. Asarda onalarga xos bo'lgan qanday fazilatlar ifoda etilgan?
6. Asar bilan tanishish natijasida qanday taassurotlarga ega bo'ldingiz?

II. "Qora quti" metodi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash.

Metod asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar juftlikka birikadi va ularga adib O'.Hoshimovning hayoti haqida ma'lumot beradigan tushunchalarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O'qituvchi topshiriqning guruhlar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, uni to'g'ri bajargan juftlikning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va yozuv taxtasiga quyidagi tarixiy sanalarni yozadi: 1941 yil, Toshkent shahri, Do'mbirobood mahallasi, O'zbekiston Xalq yozuvchisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati.

So'ngra o'quvchilardan bu tushunchalar nimani anglatishini so'raydi, to'g'ri javob bera olgan o'quvchi "O'qituvchi" rolini ijro etadi. Navbatdagi bosqichda o'quvchilardan adib tomonidan yaratilgan oltita asarning nomini kartochkalarga yozish so'raladi. "O'qituvchi" rolini bajarayotgan o'quvchi o'qituvchi yordamida topshiriqning juftliklar qanday bajarganini tekshiradi va yozuv taxtasiga quyidagi tushunchalarni yozadi: "Bahor qaytmaydi", "Ikki eshik orasi", "Nur borki, soya bor", "Tushda kechgan umrlar", "Dunyoning ishlari", "Urushning so'nggi qurboni". "O'qituvchi" rolidagi o'quvchi tengdoshlaridan tushunchalarning ma'nosini so'raydi.

III. "3/3" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro'yxatidan O'.Hoshimov tomonidan yaratilmagan asar nomini aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang!

Tushunchalar: "Tushda kechgan umrlar", "Jannat qidirganlar", "Ufq", "Ikki eshik orasi", "Bahor qaytmaydi", "YOdgor".

IY. "Tafakkur cho'qqisi" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlashni talab etuvchi quyidagi savollar beriladi:

1. Sizlar qanday fikrdasizlar: nima uchun asar "Dunyoning ishlari" deb nomlangan?
2. Sizlarning fikringizcha, bolaning tushida o'z onasining chiroq ko'tarib yurganini ko'rishi nimani anglatadi?
3. Aytinglar-chi, allaning qudrati nimada?
4. Adibning "... dunyodagi hamma onalar yaxshi!" degan so'zlarining ma'nosini qanday izohlaysizlar?

Darsning mavzusi: Hujayra va uning tarkibi (umumlashtiruvchi dars).

Darsning maqsadi: o'quvchilar tomonidan hujayra, uning tuzilishi, tarkibiy qismlari, ularning vazifalariga doir bilimlarini mustahkamlash; noan'anaviy metodlar yordamida ularda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini, bilish faolliklarini oshirish.

Dars jihozi: Hujayraning dinamik modeli, "O'simliklar hujayrasining tuzilishi va hayoti" nomli diafil'm, o'simliklar hujayrasi va ularning mohiyati xususida hikoya qiluvchi Videolavha. "Hujayra va uning tarkibi" mavzusi bo'yicha nazorat varag'i.

Dars jarayonida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar:

1. "Hujayra va uning tarkibi" mavzusi bo'yicha umumiy obzorni tashkil etish.
2. Noan'anaviy metodlar yordamida o'quvchilar tomonidan "Hujayra va uning tarkibi" mavzusi bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.
3. O'quvchilarni "Hujayra va uning tarkibi" mavzusi bo'yicha nazorat varag'i bilan ishlash qoidalari bilan tanishtirish.
4. O'quvchilarning bilimlarini umumiy tarzda baholash.

Darsning borishi:

I. Quyidagi savollar asosida o'quvchilar tomonidan "Hujayra va uning tarkibi" mavzusini o'zlashtirish darajasi aniqlanadi:

1. O'simliklar organizmi nimalardan tarkib topgan?
2. O'simlik hujayralarini qanday asboblardan yordamida o'rganish mumkin?

II. Kichik guruhlar (juftlik)da ishlash.

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish asosida faoliyat olib borishda "Rasmlarni joylashtir!" nomli interfaol metoddan foydalanish o'zining ijobiy natijasini beradi.

Mashg'ulotda "Rasmlarni joylashtir!" nomli metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Juftliklarga o'qituvchi tomonidan tayyorlangan hamda har bir kartochkaning bir tomoniga hujayra tarkibiy qismlarini anglatuvchi "Hujayra", "Hujayra qobig'i", "Protoplast", "TSitoplazma", "Mag'iz", "Vakuol" va "Plastida" kabi so'zlar yozilgan kartochkalar to'plami topshirilib, shunday ko'rsatmalar beriladi:

1. Mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilimlaringizga tayanib taqdim etilgan kartochkalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring.

2. Kartochkalarning orqa tomonini o'giring va topshiriqni to'g'ri bajarganligingizni tekshiring (agar vazifa to'g'ri bajarilgan bo'lsa, har bir kartochkaning orqa tomonida berilgan bittadan harf asosida "o'simlik" so'zi o'qiladi).

Topshiriqning bajarilish holatiga ko'ra o'quvchilar "Nazorat varag'i"ning birinchi pog'onasiga shaxsiy faoliyatlari uchun baho (ball tizimida) qo'yadi.

III. Savollarga asoslanuvchi suhbatni tashkil etish. Mazkur holatda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

⁴ Metodik qo'llanmaning ushbu bo'limida keltirilgan Botanika, Zoologiya, "Odam va uning salomatligi", Fizika va Kimyo fanlari bo'yicha ishlanmalar pedagogika fanlari nomzodi, dotsent G.S.Ergasheva tomonidan tayyorlangan.

1. O'simliklar hujayrasi qanday qismlardan iborat?
2. Hujayra protoplasti qanday qismlar majmuaidan tashkil topgan?
3. Hujayra qobig'i qanday vazifani bajaradi?

1Y. "Qora quti" metodi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash.

Ushbu metod vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar navbat bilan "O'qituvchi" rolini bajaradi. Sinf taxtasiga tsitoplazma, mag'iz, vakuol, plastida, to'qima kabi atamalar yoziladi, dastlab "O'qituvchi" rolidagi o'quvchi qayd etilgan ro'yxatga hujayra mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So'ngra o'quvchilardan sinf taxtasida o'z ifodasini topgan atamalarga izoh berishni so'raydi, to'g'ri javob bera olgan o'quvchi "O'qituvchi" rolini bajaradi. O'quvchilar bu bosqichdagi faoliyatlari uchun ham nazorat varag'ining ikkinchi pog'onasiga o'zlari uchun baho qo'yadi.

Y. "Beshinchisi ortiqcha" metodi yordamida mavjud bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro'yxatidan mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlang!

Tushunchalar: nafas olish, o'sish, ko'payish, oziqlanish, yugurish.

YI. Videotopishmoq.

Izohlarsiz hujayralarning o'sishi va bo'linishi haqida ma'lumot beruvchi ikkita Videolavha namoyish etiladi.

O'quvchilar quyidagi vazifani bajarishlari lozim: har bir lavhada qanday jarayon mohiyati yoritilganligini izohlang va jarayonlarni bosqichma-bosqich daftarga qayd etib boring!

Bu bosqichdagi faoliyat o'quvchilar tomonidan quyidagi savollarga javob qaytarish bilan yakunlanadi:

1. Hujayralar o'sish jarayonida qanday o'zgaradi?
2. Hujayralarning bo'linish jarayonida mag'izda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

YII. "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash.

Metodning mohiyati: o'quvchilarga qizil va rangli kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchi tomonidan berilgan savollarning har biriga o'quvchilar qizil (tasdiq ma'nosini bildiruvchi) yoki yashil (inkor ma'nosini bildiruvchi) rangli kartochkalarni ko'rsatish asosida javob qaytaradi.

O'qituvchi tomonidan quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. O'simliklar hujayralardan tarkib topganmi?
2. Hujayralarning shakli va hajmi bir xil bo'ladimi?
3. Hujayralarda mag'iz, tsitoplazma, qobiq, vakuol kabi organoidlar mavjudmi?
4. Hujayraning xloroplastlarida yorug'lik ta'sirida fotosintez jarayoni sodir bo'ladimi?
5. TSitoplazma hujayrani oziq modda hamda kislorod bilan ta'minlashga xizmat qiladimi?
6. Hujayra nafas oladimi?
7. To'qima turli vazifalarni bajaruvchi hujayralarning yig'indisimi?

8. Hujayralar bo'linish yo'li bilan ko'paydimi?

YIII. "YUmalozqlangan qor" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash.

Sinf o'quvchilari partalar qatorlari bo'yicha uch guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'quvchilari turli o'simlik (pomidor, piyoz, chigit va h.k.)larning tasviri tushirilgan va orqa tomonida 3 yoki 4 ta vazifa yozilgan kartochkalarni oladi. Birinchi guruh o'quvchilari pomidor hujayrasining tuzilishi, ikkinchi guruh o'quvchilari piyoz po'sti hujayrasining tuzilishi, uchinchi guruh o'quvchilari esa chigit hujayrasi tuzilishiga oid topshiriqlarni bajaradi.

Topshiriq juftlik asosida bajariladi: birinchi savolga birinchi guruhning dastlabki juftligi javob qaytaradi, ikkinchi savolga birinchi guruhning ikkinchi juftligi javob qaytaradi va h.k. Faoliyat yakunida topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan umumiy xulosalar chiqariladi.

Kartochkalarda quyidagi savollar o'z aksini topishi mumkin:

1-raqamli kartochka

1. Rasmda tasvirlangan o'simlik hujayrasi boshqa o'simliklarning hujayralaridan qanday farqlanadi?

2. Hujayra qobig'i qanday ko'rinishda bo'ladi?

3. Uning hujayrasi tarkibida qanday rangli plastidlar mavjud?

2-raqamli kartochka

1. Rasmda tasvirlangan o'simlik hujayrasi qanday shaklga ega?

2. Hujayra qobig'i qanday ko'rinishda bo'ladi?

3. Uning hujayrasi tarkibiga kiruvchi plastidlar qanday rangda bo'ladi?

3-raqamli kartochka

1. Rasmda tasvirlangan o'simlik hujayrasining uzunligi necha santimetrgacha yetadi?

2. Hujayra qobig'i qanday ko'rinishda bo'ladi?

3. Uning hujayrasi tarkibida qanday rangli plastidlar mavjud?

IX. "Qarama-qarshi munosabat" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash.

Metod yordamida "Hujayra Mening hayotimda" va "Men hujayralar hayotida" mavzularida matn tuziladi. Topshiriqni bajarish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Hujayralarning ahamiyatini eslang!

2. Hujayralar Sizning hayotingizda qanday rol o'ynaydi? (fikringizni bir necha so'z birikmalari asosida bayon eting!).

3. O'ylagan fikrlarni ketma-ketlikda yozing!

4. Qayd etilgan fikrlar orasidan o'z nuqtai nazaringizga ko'ra eng muhim deb bilganlaringizni ajrating va quyida berilgan jadvalning 1-bandiga yozing!

5. Ikkinchi darajali deb bilgan g'oyalarni jadvalning 2-bandiga yozing!

№	Hujayra Mening hayotimda	№	Hujayra Mening hayotimda
1.	Hayotimning asosi	1.	Izlanuvchi
2.	Oziq manbai	2.	Tabiatning kichik bir bo'lagi
3.	Atmosferani kislorod bilan boyitadi	3.	Iste'molchi
4.	Oziq-ovqat sanoati xomashyosi	4.	Foydalanuvchi
5.	O'g'it	5.	Yaratuvchi

6. 4-5 nafar o'quvchi birgalikda shaxsiy yondashuvni muhokama qiling!
So'ngra sinf jamoasining umumiy fikriga ko'ra sinf taxtasida quyidagi tasvir ifodalanadi:

Hujayraning ahamiyati		
№	Tabiatdagi	Inson havotidagi
1.	Hayotning asosi	Oziq-ovqat mahsuloti
2.	Kislorod manbai	Nasl davomchisi
3.	Asosiy organik modda manbai	Ishlab chiqarish xomashyosi
4.	Hayotning davomiyligini ta'minlovchi manba	

X. "Zakovatli zukko" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash.

To'plagan ballar nisbatiga ko'ra mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar o'z xohishlariga ko'ra o'qituvchi tomonidan beriladigan quyidagi savollarga qisqa muddatda javob qaytaradi:

1. Hujayralarni qayerlarda uchratish mumkin?
2. Hujayra kim tomonidan kashf qilingan?
3. Hujayra qanday asboblarda yordamida o'rganiladi?
4. Hujayra qanday tarkibiy qismlarga bo'linadi?
5. Hujayrada qanday hayotiy jarayonlar sodir bo'ladi?
6. To'qima nima?

XI. Darsni yakunlash. Ballarni hisoblash. O'z-o'zini nazorat qilish varag'iga yakuniy ballar yig'indisini yozish.


Nazorat varag'i			
№	Interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan bosqichlar	Ballar miqdori	Shaxsiy faoliyat uchun qo'yilgan ballar
1.	Rasmlarni joylashtir	0 – 3	
2.	Savollarga asoslanuvchi suhbat	0 – 2	
3.	Qora quti	0 – 5	
4.	Beshinchisi ortiqcha	0 – 2	
5.	Videotopshiriq	0 – 3	
6.	Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash	0 – 8	
7.	Yumaloqlangan qor	0 – 5	
8.	Qarama-qarshi munosabat	0 – 5	
9.	Zakovatli zukko	5	

"O'simlik hujayrasining tuzilishi"
mavzusiga oid asosiy tushunchalar

№	Tushunchalar	Tushuncha mazmuni	Bilimlar hajmi
1.	Hujayralar	Barcha hayotiy jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan	1. Tuzilishiga ko'ra: bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

		o'simlik organlarining tarkibiy birligi usuliga ko'ra: avtotroflar, geterotroflar (harakatlanadigan, harakatlanmaydigan)	2.Tirik hujayrada nafas olish, oziqlanish, o'sish, ko'payish xususiyatlariga ega. 3.Hujayralar shakli, rangi, yirik-maydaligi, ichki tuzilishi va funksiyasiga ko'ra farq qiladi. 4.Ko'payish usuli: bo'linish yo'li bilan ko'payadi.
2.	Hujayra qobig'i	Hujayrani tashqi tomondan o'rab turadi va qalin, pishiq, o'tkazuvchan bo'ladi	Vazifasi: hujayra protoplastini tashqi ta'sirlardan himoya qiladi va oziq moddalarni o'tkazish vazifasini bajaradi
3.	Protoplast	Hujayra tarkibiga kirgan qismlar majmuasi	U tsitoplazma, bir yoki bir necha hujayra mag'izi, plastida va vakuollardan tashkil topgan
4.	Tsitoplazma	Protoplastning doimiy harakatdagi asosiy tarkibiy qismi	Rangiga ko'ra: rangsiz, tiniq. Holatiga ko'ra: suyuq yoki shilimshiq. Vazifasi: hujayraning barcha qismlarini kislorod va oziq-moddalar bilan ta'minlaydi
5.	Mag'iz	Hujayraning deyarli markazida joylashgan tarkibiy Qism	SHakli, hajmi, yirik-maydaligi, yoshi va yashash sharoitiga ko'ra turlicha bo'ladi. Vazifasi: hujayra bo'linishida katta rol o'ynaydi
6.	Plastidalar	Hujayraning faqat o'simliklarga xos bo'lgan asosiy tarkibiy qismlaridan biri	Plastidalar asosan uch xil bo'ladi: leykoplastlar – rangsiz, xromoplastlar – qo'ng'ir-qizil, xloroplastlar – yashil. Plastidalar o'simlik va mevalarga rang beradi
7.	Vakuol	TSitoplazma ichidagi hujayra shirasi bilan to'lgan pufakcha	Shakli: har xil. Pufakchani vakuol qobig'i o'rab turadi. Hujayra shirasi tarkibiga suv va unda erigan turli moddalar kiradi, mevalarning ta'mi aynan shu shiraga bog'liq
8.	To'qima	Tuzilishiga ko'ra o'xshash bo'lgan va bir xil vazifani bajaradigan hujayralar yig'indisi	

Mashg'ulot yakunida sinf taxtasida o'rganilgan mavzu mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalardan iborat quyidagi sxema o'z ifodasini topadi: Hujayra va uning tarkibi



ZOOLOGIYA FANI BO'YICHA (7-SINF UCHUN)

Darsning mavzusi: Hayvon organizmining tuzilishi, hayvonlar klassifikatsiyasi.

Darsning maqsadi: O'quvchilarga hayvon organizmining tuzilishi, hayvonlar klassifikatsiyasi haqida umumiy ma'lumot berish; hayvon hamda o'simlik organizmining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash asosida egallagan bilimlarini yanada mustahkamlash.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar.

Darsning Rejasi:

1. Hayvon organizmining tuzilishi.
2. Hayvon organlari va organlar sistemasi.
3. Hayvonlar klassifikatsiyasi.
4. Hayvon hamda o'simlik organizmining o'xshash va farqli jihatlarini.

Darsning borishi:

I. Darsning dastlabki bosqichi "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" nomli interfaol metod asosida tashkil etiladi.

Sinf o'quvchilari besh guruhga bo'linadi, har bir guruhga nom beriladi (nomlarni o'quvchilar tanlaydi). Sinf taxtasi uch qismga bo'linadi. Birinchi bo'limning yuqori qismiga "Bilaman", ikkinchi bo'limning yuqori qismiga "Bilishni xohlayman", uchinchi bo'limning yuqori qismiga "Bilib oldim" deb yozib qo'yiladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu yuzasidan qanday tushunchalarga ega ekanliklarini so'raydi, ular tomonidan bayon etilgan tushunchalar "Bilaman" nomli bandga yoziladi. Bu harakat o'quvchilar fikrlarini tugatgunlariga qadar davom ettiriladi. Mazkur jarayonda barcha o'quvchilarning faolligi ta'minlanishi lozim. O'quvchilar nimaniki o'ylasalar, shu fikrni (agar u noto'g'ri bo'lsa ham) aytishlari mumkin. Zero, mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning faoliyati cheklanmaydi. Bunday yondashuv ularda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishi zarur.


O'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu yuzasidan qanday tushunchalarni o'zlashtirishni xohlashlarini so'raydi va ularni yana o'ylashga da'vat etadi. O'quvchilar tomonidan aytilgan tushunchalar "Bilishni xohlayman" nomli bandda o'z aksini topadi.

Har ikki band bo'yicha faoliyat yakunlangach, o'qituvchi o'quvchilarga "Hayvon organizmining tuzilishi, hayvonlar klassifikatsiyasi" mavzusiga oid matnni tarqatadi. Matn mavzu yuzasidan o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan asosiy ma'lumotlaridan tuziladi. O'quvchilar matnni o'qib chiqqanlaridan so'ng "YAngi mavzu bo'yicha yana nimalarni bilib oldim?" degan savolga javob topishlari lozim. Har bir guruh o'quvchilari o'zaro fikrlashib olganlaridan so'ng o'zlashtirgan yangi tushunchalarni bayon etadi. Ular tomonidan qayd etilgan tushunchalarni o'qituvchi yozuv taxtasida o'z aksini topgan jadvalning "Bilib oldim" nomli bandiga yozib boradi. Namuna sifatida quyidagi jadval keltiriladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Bosh, oyoq, ichak, teri, go'sht, suyak,	Tuzilishi, hujayrasi, klassifikatsiyasi, paydo bo'lishi,	Hayvon hujayrasi, uning tuzilishi, o'simlik hujayrasi bilan o'xshash va farqli jihatlarini, hayvon organizmi


yogʻ, tuya, ogʻiz, til, organ, organizm, tovuq, sigir, echki, qoʻy, nafas oladi, tovush chiqaradi, oziqlanadi	parvarish qilish va koʻpaytirishga oid maʼlumotlarni	epiteliy, biriktiruvchi, muskul va nerv toʻqimalaridan tashkil topganligi, ularning tuzilishi, vazifasi, organlar, organlar tizimi, klassifikatsiyasi, Zoologiya fani va uning rivojlanish tarixiga oid maʼlumotlarni
---	--	--

II. Darslik bilan ishlash. Guruhlar umumiy mavzu tarkibidan oʻrin olgan kichik mavzular bilan tanishib chiqadi. Guruhlarga quyidagi kichik mavzular beriladi:



Har bir guruhga ular oʻzlashtiradigan kichik mavzularga oid jadval yoki sxemalar tarqatiladi. Misol uchun:


1. Hayvon hujayralarining oʻsimlik hujayralariga oʻxshash va farqli jihatları (1-tasvir).
2. Hayvon toʻqimalari va organlari (2-tasvir).
3. Organlar va organlar sistemasi (3-tasvir).
4. Hayvonlar klassifikatsiyasi (4-tasvir).
5. Zoologiya fanining rivojlanish tarixi (5-tasvir).




Hayvon to'qimalari va organlari

№	To'qima nomi	Vazifasi
1.	Epiteliy to'qimasi	Yassi kubsimon va tsilindrsimon hujayralardan iborat bo'lib, himoya vazifasini bajaradi. Terining ustki qavati va ichak devorining ichki qismi epiteliy to'qimasidan tuzilgan
2.	Biriktiruvchi to'qima	Organlar oraliq'ini to'ldirib turadi va uch xil bo'ladi: suyuq (qon, limfa, to'qima suyuqligi), tig'iz (suyak, tog'ay, pay), g'ovak (parenxima). Vazifasi: organlarni bog'lash, kislorod va oziq moddalarni tashish, to'plash
3.	Muskul to'qimasi	Qisqarish xususiyatga ega tolalardan tuzilgan va harakatlanish vazifasini bajaradi
4.	Nerv to'qimasi	Nerv hujayralari va hujayra oraliq'i moddasidan iborat. Bosh miya, orqa miya, nerv tugunlar shu to'qimadan tuzilgan. Vazifasi: atrof-muhit va organlardan keladigan ta'sirlarni qabul qilish va o'tkazish

Organlar va organlar sistemasi



Hayvonlar klassifikatsiyasi



Zoologiya fanining rivojlanish tarixi

Jahon miqyosida		
Olimlar	Davr	Fanga qo'shgan hisssasi
Arastu	er.av.I V asr	500 ga yaqin hayvonga ta'rif bergan
A.Leveguk (golland)	XVI oxiri – XVII boshi	Hayvonlar organlarini mikroskop yordamida o'rganish an'anasini boshlab bergan
K.Linney (shved)		Hayvonlarni tur, urug', turkum, sinflarga ajratgan holda o'rganish taklifini ilgari surgan
CH. Darwin (ingliz)	1859 yil	Organik olamning rivojlanishi haqidagi ta'limotni yaratgan
	XIX	Hayvonlarning embriologik rivojlanishi va qazilma qoldiqlarini o'rganishga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan
	XX	Jahon okeani hayvonot dunyosini o'rganish sohasida samarali tadqiqotlar olib borilgan
O'zbekiston miqyosida		
D.N.Kashkarov	-	Hayvonlar ekologiyasini o'rganish bo'yicha ilk tadqiqotlarni olib borgan
R.F.Borovskiy, L.M.Isaev va b.	-	Markaziy Osiyo hududida yashovchi parazit hayvonlarni yo'qotish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan
T.Z.Zohidov, O.R.Bogdanov	-	Umurtqali hayvonlar, ularning hayot tarzi, organlarining tuzilishi va xususiyatlarini o'rgangan
A.Muhammadiyev, S.N.Alimuhamedov, V.V.YAxontov, R.Olimjonov, M.A.Sultonov, A.T.To'laganov, J.A.Azimov	-	Umurtqasiz hayvonlar, ularning hayot tarzi, organlarining tuzilishi va xususiyatlarini o'rganish borasida samarali tadqiqotlarni olib borganlar

Guruhlar o'zlariga ajratilgan o'quv materiali bilan tanishib chiqqanlaridan so'ng guruhlarining liderlari jamoani o'rganilgan mini mavzuga oid jadval yoki sxemaning mohiyati bilan tanishtiradi. Shu taxlitda yangi mavzuga oid bilimlar asoslari o'zlashtiriladi.

ODAM VA UNING SALOMATLIGI FANI BO'YICHA (8-SINF UCHUN)

Dars mavzusi: Inson tanasining tuzilishi va vazifalarining evolyutsion taraqqiyoti. Hujayra haqida umumiy tushuncha.

Darsning maqsadi: o'quvchilarga odam organizmi hujayraviy tuzilishi haqida ma'lumot berish orqali ularni hujayra organoidlarining tuzilishi, vazifalari bilan tanishtirish, o'simlik va hayvon hujayralari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni taqqoslash asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar, modellashtirish.

Dars jihozlari: hujayraning tuzilishi, shakllari va ko'payishiga oid ma'lumot beradigan, to'qimalarni aks ettiradigan tasvirlar.

Darsning Rejasi:

- I. Inson tanasining tuzilishi va vazifalarining evolyutsion taraqqiyoti.
2. Hujayraning tuzilishi.
3. Hujayraning kimyoviy tarkibi.

Darsning borishi:

- I. Savollar asosidagi suhbatni tashkil etish.

O'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Biz nima uchun "Odam va uning salomatligi" fanini o'rganamiz?
2. Inson organizmi nimalardan tuzilgan?
3. Inson organizmi hujayrasining tarkibiy tuzilmasi xususida nimalarni bilasiz?

II. "Zig-zag" strategiyasi asosida yangi mavzuning mohiyati ochib beriladi.

Sinf o'quvchilari 7 ta guruhga bo'linib, guruhlar nomlanadi. Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va guruhlar muayyan qism mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi topshiriladi. Guruhlar matnlarni diqqat bilan o'rganib, mavzu o'zlashtiriladi. Topshirilgan vazifani bajarish vaqtida vaqtni tejash uchun har bir guruh o'z liderini belgilaydi. Liderlar guruh a'zolariga materialning mohiyatini tushuntiradi (har bir liderning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin). Guruhlar tomonidan ularga berilgan matn o'rganilib bo'lingach, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi.

Guruhlariga quyidagi matnlar taqdim etiladi:

1-matn

Hujayra haqida umumiy tushuncha

O'simlik, hayvon organizmi hujayralardan tuzilgani kabi odam organizmi ham hujayralardan tarkib topgan. Hujayralarni TSitologiya fani o'rganadi. Uning ma'lumotlariga ko'ra odam organizmida taxminan 10^{14} - 10^{18} (yuz trillion va undan ko'p) hujayra bor. Bosh miya yarim sharlarining po'stloq qismida o'rtacha 16 milliard nerv hujayrasi mavjud.

Hujayralarning tuzilishi mikroskop yordamida birinchi bo'lib ingliz fizigi R.Guk tomonidan o'rganilgan (birinchi mikroskop 1625 yilda F.Stelluti tomonidan ixtiro qilingan).

Elektron mikroskopning yaratilishi hujayraning ilgari ma'lum bo'lmagan qismlarini o'rganishga imkon berdi.

Odam organizmida turli to'qima va organlarning hujayralari turlicha, ya'ni sharsimon, duksimon, oval, yulduzsimon va h.k. shakllarda bo'ladi. Hujayralarning hajmi ham turlichadir, ularning hajmi 5-10 mikrondan 100 mikrongacha va undan katta bo'lishi ham mumkin.

2-matn

Hujayraning tuzilishi

Barcha to'qima va a'zolar hujayralarining umumiy tuzilishi o'xshash bo'ladi. Hujayra quyidagi uch qismdan tarkib topadi: membrana (parda), tsitoplazma va yadro.

Hujayra membranasi uning ustini qoplab turadigan yupqa parda bo'lib, oqsil va yog' (lipid)lardan tashkil topgan. U hujayralarda moddalar almashinuvi jarayoni, ya'ni hujayraning oziq moddalar va kislorod bilan ta'minlanishi, Shuningdek, moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'lgan zaharli chiqindilarning hujayradan qonga o'tkazilishida muhim ahamiyatga ega. Membrana hujayra ichi va tashqarisidagi (hujayralararo) suyuqliklardagi ionlar tarkibining muvozanatda bo'lishini ta'minlaydi. Hujayra ichi va tashqarisidagi suyuqliklarda ionlar tarkibining har xil bo'lishi (hujayra ichidagi suyuqlikda kaliy ionlari, tashqarisidagi suyuqlikda esa natriy ionlari kontsentratsiyasi yuqori bo'ladi) hujayrada biologik tok (biotok) hosil qiladi. Biotok maxsus asboblari yordamida aniqlanadi. Ushbu holat turli to'qima va organlar faoliyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, yurak muskullarining biotoklari elektrokardiograf asbobi yordamida maxsus lentaga yozib olinadi. Yozuv natijalariga ko'ra mutaxassislar yurakning faoliyati xususida xulosa chiqarib, kasallik turini aniqlaydi.

3-matn

Hujayra tsitoplazmasi

Hujayra tsitoplazmasi membrananing ichida joylashgan. TSitoplazmaning tarkibi organik va anorganik moddalardan iborat. TSitoplazma organoidlariga: mitoxondriya, ichki membrana, lizosoma, Gol'ji apparati, ribosoma, tsentrosoma kabilari kiradi. Bu organoidlarning har biri maxsus vazifani bajaradi. Mitoxondriya hujayralarning energiya stantsiyasi yoki kuch beruvchi markazi hisoblanadi, ya'ni, ularada adenozintrifosfat kislota (ATF) va kreatinfosfat kislota (KF) sintez qilinadi va to'planadi. Hujayra qo'zg'alib ish bajarganda, ushbu kislotalar parchalanib, energiya hosil qiladi. Ribosomalar hujayrada oqsillarni sintezlaydi, shuning uchun ular "Oqsillar fabrikasi" deb nomlanadi. Lizosomalar fermentlardan iborat bo'lib, ular hujayradagi oziq moddalarni mayda zarrachalarga bo'ladi (parchalaydi). SHu tufayli ular shartli ravishda hujayraning ovqat hazm qilish organi deb ataladi. Tsentrosoma yadro yaqinida joylashgan bo'lib, hujayraning bo'linishida muhim rol o'ynaydi. Gol'ji apparati to'rsimon shaklda bo'lib, hujayraning bo'linishida, uning ba'zi eskirgan qismlarining yangilanishida ishtirok etadi.

4-matn

Yadro va uning vazifasi


YAdro qizil qon tanachalaridan tashqari barcha hujayralarda bo'ladi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) hujayrada moddalar almashinuvi va oqsil sintezni boshqaradi;

2) hujayrada kechadigan barcha fiziologik va morfologik jarayonlarni idora qiladi;

3) irsiy axborotlarni saqlaydi.

Hujayra yadrosi quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:



Odaming somatik hujayralarida 46 ta, jinsiy hujayralarida esa 23 ta xromosoma bo'ladi. Har qaysi xromosoma tarkibida mingtagacha va undan ham ko'proq gen bo'ladi. Xromosoma va genlar hujayraning nasl apparati hisoblanadi.

Tashqi muhitning ba'zi zararli omillari, ya'ni, radiatsiya, kimyoviy va narkotik moddalar, spirtli ichimliklar, ba'zi kasallik qo'zg'atuvchi mikroba va viruslarning zahari hujayraning nasl apparati – xromosoma va genlarga ta'sir etib, ularning faoliyatini buzadi va turli irsiy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

5-matn

Hujayraning kiyoviy tarkibi

Hujayraning barcha tarkibiy qismlari anorganik va organik moddalardan tashkil topgan. Hujayra tarkibida fosfor, oltingugurt, kal'tsiy, kaliy, natriy, xlor, temir, magniy, kremniy kabi makroelementlar, yod, mis, kobalt, ruh, nikel, oltin kabi mikroelementlar bo'ladi. Hujayra tarkibining 70 % dan ko'prog'ini suv tashkil qiladi va u o'zining erituvchanlik xususiyati bilan barcha hayotiy jarayonlarda ishtirok etadi. Suv, makro va mikroelementlar hujayraning anorganik moddalaridir.

Hujayra tarkibidagi organik moddalarga oqsil, yog', uglevod va nuklein kislotalar kiradi.

Oqsillar tarkibining asosini uglerod, vodorod, kislorod, azot tashkil etadi, fosfor, oltingugurt ham bo'ladi. Oqsil hujayraning ko'payishi va eskirgan qismlarni tiklanishida asosiy vazifani bajaradi.

Yog'lar, asosan, uglerod, vodorod va kisloroddan iborat bo'lib, plastik va energetik vazifani bajaradi.

Uglevodlar ham uglerod, vodorod va kisloroddan tashkil topib, energetik ahamiyatga ega.

6-matn

Hujayraning bo'linishi

Hujayralar ikki xil usulda bo'linadi: amitoz va mitoz.

Amitoz oddiy bo'linish usuli bo'lib, bunda hujayra membranasi, tsitoplazma va yadro ikkiga bo'linadi. Ba'zan faqat yadroning o'zi, xromosoma hosil qilmasdan bo'linib, ikkita va ko'p yadroli hujayra hosil bo'ladi.

Amitoz usulida bo'linish siydik pufagi, homila ustini qoplab turuvchi yupqa (amnion) parda hujayralari, Shuningdek, vegetativ nerv tugunlari hujayralarida uchraydi.

Mitoz bo'linishda hujayra membranasi, tsitoplazma va yadro uzunlashib, yadro tarkibida yangi xromosomalar hosil bo'ladi va ikkiga bo'linadi. Natijada bir xil nasl apparatiga ega yosh hujayralar hosil bo'ladi. Mitoz bo'linishda hujayralar sonining oshishi hisobiga yosh organizm o'sadi va rivojlanadi, nobud bo'lgan hujayralar o'rniiga yangilari hosil bo'ladi.

Mitoz to'xtovsiz kechadigan jarayon bo'lib, quyidagi to'rt bosqichda davom etadi: profaza, metofaza, anafaza va telofaza. Mitozning davom etish vaqti to'qimaning turi, organizmning fiziologik holati va tashqi muhit sharoitiga ko'ra turlicha bo'ladi.

7-matn



Hujayraning hayotiy jarayonlari

Har bir to'qima va a'zoning hujayralari ma'lum vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. M: bezlarning hujayrasi ferment yoki gormon ishlab chiqaradi. Miyaning hujayrasi nerv hujayralarining ta'sirlarini qabul etish, ularni analiz va sintez qilish, ishchi organlarda harakatlarni boshqarish vazifasini bajaradi.

Hujayralarning mo'tadil (normal) yashashi, o'z vazifasini bajarishi, ko'payishi uchun ularda uzluksiz ravishda moddalar almashinuvi amalga oshadi. Ovqat hazm qilish organlarida parchalanib qonga so'rilgan oziq moddalar hujayralarga o'tadi va bir guruh hujayra tarkibiy qismlarining muntazam yangilanib turishi, ko'payishi uchun plastik material sifatida o'zlashtiriladi. qolgan qismi esa nafas olish organlaridan kelgan kislorod bilan oksidlanib, energiya hosil qilishi hisobiga hujayra qo'zg'aladi.

Oziq moddalarning kislorod ishtirokida oksidlanishi va parchalanishi natijasida hosil bo'lgan qoldiq moddalar (karbonad kislota, mochevina-ammiak, siydik kislota, kreatinin, mineral tuzlar) hujayradan qonga o'tadi va ayirish organlari orqali tashqariga chiqarib yuboriladi. Bu jarayonlar gormonlar va nerv sistemasi orqali boshqariladi.

Shu tarzida barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganilib chiqilgach, o'quvchilar "Hujayra haqida umumiy tushuncha" mavzusi bo'yicha asosiy tushuncha (element)larni ajratadi, tushunchalarning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydi, ilgari surilgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxemani tayyorlaydi. Quyida namuna sifatida "Sitoplazma organoidlari" nomli sxema keltiriladi (1- va 2-tasvirlar):



Dastlab o'quvchilar e'tiboriga o'qituvchi tomonidan ishlangan sxema havola etiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

BIOLOGIYA FANI BO'YICHA (9-SINF UCHUN)

Dars mavzusi: Eukariot hujayra.

Darsning maqsadi: o'quvchilarning inson organizmining hujayraviiy tuzilishiga oid bilimlarini umimlashtirish va mustahkamlash.


Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar, modellashirish.

Dars jihozlari: mikroskop, o'simlik, hayvon va inson organizmi hujayralarining mikropreparatlari, o'quv fil'mlari, jadvallar.

Darsning borishi:

I. "Venn diagrammasi" strategiyasini qo'llash asosida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash.

Sinf o'quvchilari to'rt guruhga ajratilib, guruhlar nomlanadi. Sinf taxtasiga quyidagi tartibda uchta doira chiziladi:



Gruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh o'simlik va hayvon hujayrasi tuzilishidagi o'xshash va farqli jihatlarni taqqoslaydi. O'simlik hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar diagrammaning 1-qismiga, hayvon hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar diagrammaning 2-qismiga va har ikkala organizmda uchraydigan organoidlar 1- va 2-diagrammalarning kesishmasidan hosil bo'lgan qismiga yoziladi.

2-guruh hayvon va odam hujayrasining tuzilishini taqqoslaydi va diagrammaning 1-qismiga hayvon hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar, 2-qismiga odam hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar, har ikkala organizm hujayrasiga xos bo'lgan organoidlar esa 1- va 2- qismlar kesishmasiga yoziladi.

3-guruh odam va o'simlik hujayralari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni topishga harakat qiladi; odam hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar diagrammaning 1-qismiga, o'simlik hujayrasigagina xos bo'lgan organoidlar diagrammaning 2-qismiga, har ikki organizmga xos bo'lgan organoidlar esa 1- va 2-qismlar kesishgan joyga yoziladi.


4-guruh har uchta doira kesishmasidan hosil bo'lgan markaziy qismga o'simlik, hayvon va odam organizmi hujayrasiga xos bo'lgan organoidlarni yozadi.

Guruhlar tomonidan vazifa bajarilib bo'lingach, liderlar tanlanadi. Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umimlashtirib, yozuv taxtasida aks ettirilgan diagrammani to'ldiradi.

II. Darslik bilan ishlash.

O'quvchilar darslikdan hujayra organoidlari va ularning vazifalariga oid ma'lumot beradigan material diqqat bilan o'rganadi. Umumiy matnning tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlab, umumlashtiradi (ya'ni modellashtiradi).

Har bir guruhning a'zolari o'zaro kengashib, o'quv materialini modellashtiradi. Modellashtirishda ularning bu jarayonga nisbatan ijodiy yondashuvlari, mavzu mohiyatini ochib beradigan asosiy tushunchalarni qay darajada o'zlashtirganliklari, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni anglay olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhlar tomonidan yaratilgan modellar mavzuning puxta o'zlashtirilganligini ko'rsatuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Misol uchun:



Faoliyatiga ko'ra guruhlar rag'batlantiriladi. Keyingi bosqichda dastlab har bir guruhda, keyin esa barcha guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi.

FIZIKA FANI BO'YICHA (9-SINF)

Dars mavzusi: YOrug'likning kimyoviy va biologik ta'siri. Fotografiya. Fotosintez va uning ahamiyati.

Darsning maqsadi: o'quvchilarga yorug'likning kimyoviy va biologik ta'sirlari, fotografiya, fotosintez hodisasi, uning ahamiyatiga oid bilimlarni berish, mavjud bilimlarni mustahkamlash.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar, modellashtirish.

Dars jihozlari: yorug'likning kimyoviy va biologik ahamiyati hamda fotosintez jarayonining mohiyatini yorituvchi ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi:

1. Savollar asosida suhbat tashkil etish.

O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Yorug'likning tabiatdagi ahamiyati qanday?

2. Fotosintez nima?

3. Fotomintez qayerda va qachon sodir bo'ladi?

II. "Insert" strategiyasi asosida bilimlarni mustahkamlash.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, guruhlar nomlanadi. O'qituvchi har bir guruhdan mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishini so'raydi. Guruhlar navbati bilan fikr bildiradi (bu jarayonda guruhning barcha a'zolari faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq). Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yoziladi. Faoliyat yakunlangach, o'qituvchi "Yorug'likning kimyoviy va biologik ta'siri. Fotografiya. Fotosintez va uning ahamiyati" mavzusini yoritishga xizmat qiladigan matnni o'quvchilarga tarqatadi. So'ngra shunday topshiriq beriladi:

1. Matn bilan tanishib chiqing!

2. Matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

Z – matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o'z aksini topgan bo'lsa;

S – matnda guruhlar tomonidan bildirilmagan fikr yoritilgan bo'lsa;

D – matnda bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lsa;

? – matn bilan tanishishda tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So'ngra guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini o'zaro o'rtoqlashib, guruh bo'yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar boshchiligida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O'qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi. CHunonchi:

№	Ilg'orlar	Liderlar	Binafsha	Yulduzlar	Zukkolar
1.	12	12	12	11	12
2.	18	20	6	10	15
3.	1	4	1	-	3
4.	3	1	-	-	-

O'qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik, tushunmovchiliklarning o'quvchilar tomonidan to'g'ri hal etishishi va to'g'ri tushunib olishlariga yordam beradi.

Shundan so'ng, guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratadi va ular o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi (modellashtiradi). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasiga yetkaziladi.

KIMYO FANI BO'YICHA (8- SINIF UCHUN)

Dars mavzusi: Tabiatda azot. Tabiatda azotning aylanishi.

Darsning maqsadi: o'quvchilarga azotning tabiatdagi ahamiyati, aylanish jarayonlari mohiyati xususida ma'lumotlar berish.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar, modellashtirish.

Dars jihozlari: azotning tabiatda aylanishi va ahamiyatini yorituvchi ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi:

I. Savollar asosida tashkil etiluvchi suhbat.

O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Azot qanday fizik, biologik va kimyoviy xossalarga ega?

2. Tabiatda azotning qanday birikmalari mavjud?

II. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" nomli metod yordamida bilimlarni mustahkamlash.

Sinf o'quvchilari beshta guruhga bo'linib, guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga "Bilaman", ikkinchi bandning yuqori qismiga "Bilishni xohlayman", uchinchi bandning yuqori qismiga esa "Bilib oldim" degan so'zlar yoziladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga egaliklarini so'raydi va bildirilgan fikrlarni "Bilaman" nomli bandga yozib qo'yadi. Bu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to'la bayon etilgunga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a'zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. O'quvchilar tomonidan bildirilayotgan noto'g'ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero, bunday harakat o'quvchilarning faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raydi va o'quvchilarni yana o'ylashga da'vat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so'raladi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar "Bilishni xohlayman" nomli ustunga yozib boriladi.

So'nggi bosqichda o'quvchilarga "Tabiatda azot. Tabiatda azotning aylanishi" mavzusiga oid matnlar tarqatiladi. Ushbu matn mavzu bo'yicha eng asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matn bilan tanishib chiqib, mushohada qilish asosida mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirganlarini aniqlashlari lozim. Ular o'z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadi, bu fikrlar "Bilib oldim" nomli ustunga yozib boriladi.

Bu jarayon o'quvchilarning fan asoslarini qay darajada puxta o'zlashtirganlariga oid ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning o'z-o'zini nazorat qilishlarini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Namuna sifatida quyidagi jadval keltiriladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Tabiatda azotning 2 ta izotopi uchraydi; ammiak, nitrat kislota, azot birikmalari, azot oksidlari; dukkakli o'simliklarda azotni o'zlashtiruvchi azot bakteriyalar bo'ladi; azot o'simliklarning o'sishiga yordam beradi; havo tarkibida	Tabiatda aylanish jarayoni, tabiatdagi ahamiyati, o'simliklarning azotni o'zlashtirish jarayoni, amaliy jihatdan foydalanish, inson organizmiga ta'siriga oid	O'simlik va hayvonlar azotni erkin o'zlashtira olmasliklari, o'simliklar azotni NH_4 va NO_3 holida o'zlashtirishlari, chaqmoqning tuproqni azot bilan boyitishdagi roli, hayvonlar o'simliklarni, inson esa o'simlik va hayvonlarni iste'mol qilish orqali azotni o'zlashtirishi, azotning tabiatdagi aylanishi,

78 %, odam tanasida esa 3 % azot bo'ladi	ma'lumotlarni	tabiat va inson hayotidagi ahamiyatiga oid ma'lumotlarni
--	---------------	--

III. Darslik bilan ishlash asosida bilimlarni mustahkamlash.



O'quvchilar to'rt guruhga bo'linib, har bir guruhga mavzu yuzasidan turli kichik matnlar beriladi.

1-guruhga matnning 1-abzatsi; 2-guruhga 2- va 3-abzatslar; 3-guruhga 4- va 5-abzatslar hamda 4-guruhga matnning qolgan qismi.

Guruhlarga ular tomonidan o'rganilgan o'quv materialini loyihalash vazifasi yuklatiladi.

Guruhlar matn bilan tanishib, mazmunini guruhda muhokama qiladi, fikrlar almashiladi, umumlashtiradi. Umumlashtirilgan fikrlar liderlar tomonidan jamoaga yetkaziladi.

Quyida mavzu matnining 1-qismi bo'yicha 1-guruh tomonidan tayyorlanishi lozim bo'lgan loyihalardan namunalar keltiriladi (1- va 2-tasvir).



MUNDARIJA

	SO'Z BOSHI.....	3
I BO'LIM.	INTERFAOL TA'LIMNING UMUMIY TAVSIFI.....	4
	Interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlari.....	-
II BO'LIM.	INTERFAOL METODLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI.	9
	“Ajurli arra” metodi.....	-
	“Akvarium” texnologiyasi.....	10
	“AJIL” (“Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar”) texnologiyasi ..	10
	“Asalari galasi” metodi.....	12
	“Aqliy hujum” metodi	12
	“Baliq skeleti” metodi	14
	“Barcha omillarni hisobga ol!” (Boho) metodi	15
	“Bahs-munozara” metodi	15
	“Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha” metodi..	16
	“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB) metodi....	16
	“Blits-so'rov” metodi	17
	“Bumerang” texnologiyasi	18
	“Venn diagrammasi” strategiyasi	19
	“Videotopishmoq” metodi	20
	“Galereya” metodi	20
	“Gugurt donalari” metodi	22
	“Yagona davra” metodi	23
	“Debat” texnologiyasi	23
	“Delfi” metodi	24
	“Yelpig'ich” texnologiyasi	24
	“Yozma ish” strategiyasi	25
	“Jadval” metodi	26
	“Zakovatli zukko” metodi	26
	“Zig-zag” metodi	27
	“Zinama-zina” metodi	28
	“Ijodiy ish” metodi	29
	“Insert” metodi	29
	“Intervyu” metodi	30
	Imak (“Ishontirish maktabi”) texnologiyasi	31
	KBI (“Kuzatish, bahslashish, ishtonirish”) texnologiyasi	32
	“Keys-stadi” texnologiyasi (yoki “O'quv keyslari”	33
	texnologiyasi)	
	“Kichik esse” texnologiyasi	36
	“Klaster” metodi	36
	“Kontseptual jadval” metodi	37
	“Kubik” metodi	38
	“Kungaboqar” texnologiyasi	38
	“Kundalik” metodi	39
	“Ko'rgazma” texnologiyasi	40
	“Labirint” texnologiyasi	40

“Loyihalash” metodi	41
“Mantiqiy chalkash zanjir” metodi	42
“Musbat, manfiy, qiziqarli” (MMQ) metodi	43
“Menga soʻz bering!” metodi	43
“Modellashtirish” metodi	44
“Muammoli vaziyat” metodi	44
“Munosabat” texnologiyasi	45
“Muammo” texnologiyasi	46
“Muzyorar” metodi	48
“Muloqot” treningi	48
“Muqobil imkoniyatlar tanlovi” (MIT) strategiyasi	49
“Nima uchun?” metodi	50
“Nilufar guli” Texnologiyasi	51
“Olmos” Texnologiyasi	52
“Raqamlar” metodi	53
“Reja” metodi	53
“Ryuzume” texnologiyasi	55
“Rotatsiya” metodi	56
“Savol-javob” metodi	56
“Sad” (uchlik – samarali, axloqiy, didli) texnologiyasi..	57
“SWOT-tahlil” metodi	58
“Senariy” texnologiyasi	59
“Sinkveyn” metodi	60
“Skarabey” texnologiyasi	61
“Sindikat” metodi	62
“Suhbat” metodi	63
“Sxema” texnologiyasi	63
“Tavsiyanoma” texnologiyasi	64
“Tanishuv” texnologiyasi	65
“Tashviqot guruhi” texnologiyasi	66
“Taqqidmot” metodi	67
“Test” texnologiyasi	67
“T-jadval” texnologiyasi	68
“Toifalash” metodi	69
“FSMU” texnologiyasi	70
“CHArxpalak” texnologiyasi	71
“Yumaloqlangan qor” metodi	72
“Yalpi fikriy hujum” texnologiyasi	73
“Qanday?” metodi	73
“Qarama-qarshi munosabat” metodi.....	74
“Qarorlar shajarasi” (“Qaror qabul qilish”) texnologiyasi.....	75
“Qora quti” metodi	76
“Qorboʻron” metodi	77
“6x6x6” metodi	77
“3x4” Texnologiyasi	78

“Oltita fikrlovchi qalpoqcha” (“Oltita o‘q”) metodi.....	79
XOTIMA.....	80
FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR.....	81
ILOVA.....	82
INTERFAOL METODLAR ASOSIDAGI DARS	
ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR.....	-

Qaydlar uchun

This image shows a single page of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There is no handwriting or other markings on the paper.

INTERFAOL METODLAR: MOHIYATI VA QO‘LLANILISHI

(Metodik qo‘llanma)

Adadi 200 nusxa. Hajmi 6,75 b/t.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.

